

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA’LIM, FAN VA INOVATSIYALAR VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI  
SAN’ATSHUNOSLIK FAKULTETI

**N.P.Jumaboyev**

# RANGTASVIR

Tasviriy san`at va muhandislik grafikasi ta’lim yo‘nalishi  
Rangtasvir darslari uchun  
(o‘quv qo‘llanma)

**«ILM ZIYO ZAKOVAT»  
Toshkent – 2023**

**УДК: 333.256.04.**  
**КБК: 889.224.136**  
**N 031**

**N.P.Jumaboyev. RANGTASVIR** Tasviriy san`at va muhandislik grafikasi ta’lim yo‘nalishi Rangtasvir darslari uchun (*O`quv qo`llanma*). — Toshkent.: «Ilm ziyo zakovat» 2023 yil. 104 b.

Bugungi kunda yurtimizda iqtidorli va iste’dodli yoshlari safi kengayib borayotganligi qalbimizda cheksiz faxr va iftixor tuyg‘ularini uyg‘otadi. Chunki ijodkor yoshlari kelajak poydevori, ularning bilim va tafakkurlari, izlanuvchanligi natijasida yurtimiz rivoj topib, yuksalishiga sabab bo‘ladi. “San’at va madaniyatdek kuch orqali inson qalbiga yo‘l topish haqida so‘z yuritar ekanmiz, hammamiz yaxshi tushunamizki, har qaysi iste’dod egasi o‘ziga xos bir olam, shu sababli ijod ahliga qandaydir aql o‘rgatish, eng asosiysi, ularni boshqarishga urinish mumkin emas. Lekin bu hayotda ularni birlashtiradigan, yangi ijodiy marralar sari ilhomlantiradigan muqaddas tushunchalar borki, ular Vatan va xalq manfaati, ezgulik va insoniylik tamoyillari bilan uzviy bog‘liqdir”<sup>1</sup>. Agarki har qaysi ijodkor o‘z asarlarida ana shu o‘lmas g‘oyalarni bosh maqsad qilib qo‘ysa, ularni badiiy mahorat bilan ifoda eta olsa, hech shubhasiz, adabiyot ham, madaniyat va san’at ham tom ma’noda ma’naviy yuksalishga xizmat qilib, o‘zining ijtimoiy vazifasini to‘liq ado etishga erishgan bo‘ladi. Tabiatning ne’matlari va uning borlig‘i har qanday insonni sehrlay oladi va doimo o‘ziga ohanrabodek tortadi. Tevarak atrofimizni o‘rab turgan borliq turli-tuman ranglarga burkangan. Borliqni tashkil etgan har bir narsa yoki buyum o‘zining muayyan rang tusiga egadir. Qayerga qaramang ranglarning ta’sirchan kuchini ko‘rasiz. Aynan ularni tasvirlash rassomga zavqu-shavq bag‘ishlaydi. Ona tabiatimizning go‘zalligi va uning maftunkor ranglari-yu, ajoyib tarovati yana va yana ijod qilishga undaydi. Ana shu ichki xohishlar esa, takrorlanmas asarlar seriyasini yaratishga turtki bo‘lib, mo‘yqalam orqali borliqni aks ettirishga chorlayveradi. Shu tariqa rassomning badiiy faoliyati yuksaklashib, mohir rassom sifatida nozik ranglarda asarlar yaratadi. Ushbu qo‘llanma ayni jarayonlarda talaba yoshlarda ko‘nikma va malakalarni takomillashtiradi. Qo‘llanmada keltirilgan fikrmulohazalar soha mutaxassislarining jamlanma majmualaridan, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalari, hamkasblar bilan o‘zaro suhbat, maslahat almashish hamda bir necha yillik o‘qituvchilik tajribalarimiz natijalari asosida shakllandи.

**Tuzuvchi:**  
**Taqrizchilar:**  
**Muharrir:**

**Jumaboyev Nabi Pardaboyevich**  
**p.f.n. U.Nurto耶ev**  
**p.f.n. R.Xayrov**  
**p.f.n, prof. A.Sulaymonov**

**ISBN 978-9910-9778-5-5**

© N.P.Jumaboyev  
© «Ilm ziyo zakovat» 2023 yil.

<sup>1</sup> I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. T.: “Ma’naviyat”, 2008.


## **KIRISH**

Tasviriy san'atning asosiy turi hisoblangan rangtasvir fani yoshlarni dunyoqarashlarini kengaytirishga va komil inson qilib shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Rangtasvir darslari talabalarning rasm ishslash malakalarini o'stiribgina qolmay, balki ularning badiiy fikrlash doirasini kengaytiradi. Ijodiy qobiliyatini, kuzatuvchanligini, ko'z xotirasini rivojlanadir. Shuningdek, atrofdagi barcha narsalarga e'tibor kuchayadi. Ma'lumki, hozirgi kunda ta'limni "Zamonaviy ilg'or innovatsion pedagogik texnologiyalar" siz tasavvur etib bo'lmaydi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning maqsadi qisqa vaqt davomida imkoniyatlarni hisobga olgan holda ularga keng va chuqur bilim berish hamda malakalarini egallahshlaridan iborat. "Odatda, samarali texnologiyalarni qo'llash yangi sifat va miqdor o'zgarishiga olib keladi. Texnologiyalarning bu xususiyati pedagogik-texnologik jarayonga ham bevosita aloqadordir. Pedagogik jarayonda takrorlanuvchi, qaytariluvchi siklni yaratish murakkabroq kechadi. Chunki, o'qitishning maqsadi, ta'lim vazifasining mazmuni, o'quv materallarining xilma-xilligi, bilish faoliyati, o'zlashtirish darajasi talabaning individual xususiyatlariga ko'p jihatdan bog'liqligi kabi holatlar ma'lum qiyinchiliklarni tug'diradi. Lekin ta'lim-tarbiya jarayonida muvaffaqiyatga erishish uchun bu qiyinchiliklarni inobatga olgan holda pedagogik texnologiyaning qaytaruvchi-takrorlanuvchi aloqasini yaratish zarur bo'ladi". Badiiy yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlari, maxsus san'at mifik-internatlari, litseylarining rangtasvir fanida o'quv mashg'ulot jarayonlarida natura asosida real tasvirlar ishlanadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida esa narsaning o'ziga qarab ya'ni naturaga qarab ishlanadi. Borliqdagi mavjud narsalarning tashqi ko'rinishi aynan o'xshatilib tasvirlangan barcha asarlar ham realistik asar hisoblanmaydi. Naturalistik tabiatdan aynan ko'chirish bilan cheklansa, real hayotning chuqur mazmunini ochib berish uchun uni badiiylashtiradi, ba'zida bo'rttiriladi. Kelajagimiz bo'lgan yosh avlodni har tomonlama rivojlanishda estetik tarbiya ham alohida ahamiyatga ega. Tasviriy san'at o'quvchi yoshlarga borlijni yaxshiroq tushunishga, odamlarning his-tuyg'ulari, dunyonи chuqurroq anglashga, ularning ijodiy qobiliyatini o'stirishga yordam beradi, go'zallikdan bahra olishga o'rgatadi, shuningdek ularning hayotga go'zallik kiritish

malakalari rivojlangan, badiiy fikrlash doirasi keng bo‘ladi. Yoshlardagi bu holatlarni rivojlantirishda estetik tarbiyaning ta’siri katta ahamiyat kasb etadi. Tasviriy san’atning rangtasvir turi borliqni badiiy obrazlar orqali o‘zida aks ettiradi. Tasviriy san’at insonning ongiga ta’sir etib, unda ezgu his-tuyg‘ularni uyg‘otadi. U kishini ruhlantirib ma’naviy olamini boyitadigan san’at turlaridan biridir. “Shunday qilib, estetika tasviriy san’atni to‘la qamrab oladi va uning ichmichiga kirib boradi: badiiy asarning yaratilish arafasidagi shart-sharoitlardan tortib, to u bunyodga kelib, asl egasi – idrok etuvchiga yetib borgunicha bo‘lgan va undan keyingi jarayonlarni tadqiq etadi, hamda ulardan nazariy xulosalar chiqaradi”. Shuningdek ilmiy kuzatishlar, olimlar fikrlari shuni anglatadiki, tasviriy san’at yoshlarda faqat ilmiy tafakkur, estetik ideallik beribgina qolmay, odam zotining eng muhim jihatlarini, ya’ni kuzatish, idrok etish, tafakkur va tasavvurlarni rivojlantradigan bosh asosiy vosita ekanligini isbotlab bermoqda. Hozirgi kunda tasviriy san’atga talab va e’tibor ortib bormoqda. Jumladan, tasviriy san’atga ixtisoslashtirilgan maktablar, kollejlar, universitetlar shular jumlasidandir.

## RANGLARNI O'ZBEK TILIDA NOMLANISHI

Tasviriy san'at darslarida ranglar bilan ishlashda o'quvchilarni ko'pchilik hollarda qiynab qo'yadigan narsa ularning ranglarni o'zbekcha nomlarini yaxshi bilmasliklaridir. Bu hol, ayniqsa natyurmort ishlashda, uning ranglari to'g'risida so'z yuritganda ko'zga yaqqol tashlanadi. Ma'lumki, bo'yoqlarning 150 dan ortiq rus tilida aytildigani nomlari mavjud. O'zbek tilida esa ularning nomlari durustroq ishlab chiqilmagan. Shuning uchun rang to'g'risida gapirayotganda turmushda bor materiallar, buyumlar, sabzavot va mevalarning nomlaridan foydalanishga to'g'ri keladi. Masalan, baxmal rang, jiyda rang, bodom rang, olov rang, o't rang yoki maysa rang, sabzi rang va hokazolar. Ammo, bu xildagi shartli nomlar ko'pincha ranglarning tuslari haqida aniq tessavur qilish imkonini bermaydi. Shuning uchun bo'yoqlarni xususiyatlari bilan tanishishda ularni maxsus guruhlarga ajratgan va bir-biriga bog'lab o'rgangan ma'qul. Masalan, sariq rang o'rganilayotganda uning tarkibiy qismini hosil qilish yo'lini, ishlatish va qo'llanish usullarini hamda boshqa tuslarini ko'rib o'tish tavsiya etiladi. Ranglarning tuzilishi va hosil bo'lishi bosqichlari to'g'risida qisqacha to'xtalib o'tamiz. Bu yerda gap asosiy ranglar (sariq, qizil, zangori) va ularning bir-biri bilan aralashuvida hosil bo'ladigan rang tuslari haqida boradi.



Rang tuslari doirasi

Sariq ranglar umuman ochiq va tiniq tusda bo‘ladi, sariq pigmenti bor bo‘lgan moddalardan olinadi. Sariq ranglarning eng yaxshi xususiyati shundaki, ularni xohlagan bo‘yoqlar bilan aralashtirish mumkin<sup>2</sup>. Sariq ranglar o‘z navbatida zangori rang bilan aralashib quyidagi tuslarni hosil qiladi: sarg‘ish, sarg‘ish yashil, yashil, to‘q yashil, tutaki, zaynovi, zumrad ranglar. Shuni unitmaslik kerakki, sariq rangning bir qancha tuslari mavjud. Jumladan, nim sariq, och sariq, sarg‘ishtob, to‘q sariq, qovoq rang, malla, to‘q malla, pistoqi va boshqa tuslar.

Limon rangli sariq, sariq rang tuslari ichida eng chiroyli va ravshandir. Uni qaysi rang tusi bilan aralashtirmang ta’siri sezilib turadi. Hosil bo‘lgan rang o‘zining yoqimliligi bilan boshqa o‘ziga o‘xhash ranglardan ajralib turadi. Bu hol ayniqsa zaynovi, zumrad ranglarda yaqqol seziladi. Sariq rangning qizil bilan qo‘shilishdan esa zarg‘aldoq rang hosil bo‘ladi.

Agar eritmada sariq rangning ta’siri kuchliroq bo‘lsa – zarg‘aldoq, och zarg‘aldoq, qovoq rang va shu kabi tuslar, qizil va boshqa tuslar hosil bo‘ladi. Bulardan tashqari sariq rangning quyidagi tuslari ham ishlataladi. Kronli sariq – och sariq, tiniq va nafis. Kadmiyli sariq – och sariq va yorug‘ tusdagisi esa ba’zan passiv limon rangga o‘xhab ketadi. To‘q sariq, zarg‘aldoq tusga ega.

Oxra – Jigarrang tusdagi sariq, yorug‘ va ravshan, tilla rang, jigarrang, qizg‘ish tuslarda bo‘ladi. Sariq rang asosan yorug‘ joylarni, iliq tusdagi ko‘rinishlarni berishda qo‘l keladi.

Qizil rang bo‘yoqlar ichida o‘zining alohida xususiyati bilan ajralib turadi. Chunki, uning turi ko‘p bo‘lib, bir-biridan tusi jihatidan sal-pal farq qiladi. Qizil bo‘yoq asosan qirmizi, alvon rang, gul-gun, baxmal rang, och qizil, to‘q qizil, och pushti, nim pushti, pushti, shol, och sapsar, nim sapsar, siyoh rang, qizg‘ishtob, och binafsha, ko‘kish banafsha, qizg‘ish binafsha va boshqa rang tuslaridan iborat. Qizil rangning zangoriga yaqinroq tuslari o‘zida sovuq ko‘rinishni aks ettiradi. Safsar hamda binafsha ranglarning sovuq tuslari shular jumlasidandir.

Qizil ranglar: kinovar – ravshan qizil bo‘yoq (simob sulfid qizil rangi meneral, simob rudasidan olingan qizil bo‘yoq).

---

<sup>2</sup> M.Nabihev. Rangshunoslik va rangtasvir asoslari. T.: 1995.

Kraplak – turli tusda ko‘rinuvchi to‘q qizil bo‘yoq.

Karmin – koshinel deb ataluvchi hashoratdan olinadigan och tusli qizil bo‘yoq.

Kadmiyli qizil – juda tiniq, ravshan va iliq tusdagi qizil kabi tuslari ham mavjud.

Zangori bo‘yoq sovuq ranglarning butun bir gammasini tashkil etadi.

Bulardan tashqari zangori bo‘yoqning ultramarin – ko‘kintir rangni eslatuvchi to‘q ko‘k tusi mavjud.

Kobalt – och havorangning har xil tusdagi ko‘rinishi.

Bermen moviy rang – to‘q zangori tuslari ham bor.

Zangori rangning tiniq tuslarigina sariq hamda qizil ranglar bilan yaxshi aralashadi va hech qanday xunuk tus hosil qilmaydi.

Yashil bo‘yoqlar sariq rangning bevosita zangori bilan aralashuv natijasida hosil bo‘ladi.

Qora rang boshqa ranglardan o‘zining tamoman qarama-qarshi xusuiyatlar bilan ajralib turadi. Qora rang yordamida axromatik ranglarning butun bir kompozitsiyasini topish mumkin. Uning har qanday xromatik ranglar bilan aralashmasi axromatik ranglarning yoki kerakli ranglarning xira tusini beradi.

Oq rang akvarel bo‘yog‘i bilan ishlashda qo‘llanilmaydi, lekin guash, tempera, moy bo‘yoq va pastel bilan ishlashda qo‘llaniladi. Axromatik va xromatik ranglarning oq rang bilan har qanday aralashmasi o‘sha rangning och tusini hosil qiladi.

Ranglar va ulardagi turli alomatlarni o‘zbek tilida ifodalash an’analari:

Alvon	Sariq
Arg‘uvon	Safsar
Bargi karam	Samon rang
Binafsha	Sur
Bug‘doy rang	Firuza
Bo‘z	Yashil

Gulgun	O‘choq kesak
Gunafsha	Qizil
Jigar rang	Qirmizi
Zangori	Qora
Za’faron	Qora mag‘iz
Zumrad	Qoracha
Kul rang	Qo‘ng‘ir
Ko‘k	Qahrabo
Lojuvard	Havo rang
Lola rang	Ol
Malla	Oq
Moviy	Pista mag‘iz
Mosh rang	Pistoqi
Nafarmon	Pushti

Ranglarni jonli tilda va shuningdek, turli kasb hunar egalarining nutqlarida yuqoridagilar qatorida yana quidagi ranglar qo‘llanib kelinadi:

Anordona	Zok
Aqiq	Kaptar bo‘yin
Bayzogun	Ko‘k temir
Burgul	Miloyi
Gulnor	Nimtatir
Gulob	Nimpushti
Jiyron	Olma talqon
Zanovi	Sabzi rang
Zartova	Siyoh
Sariq kesak	Shinni
Surma rang	Shol

To‘pori	Qovoq sariq
Shaftoli guli	Hafrang

Bulardan tashqari O‘rta Osiyo bobokalon olimlarimiz va shoirlarimizning asarlarini o‘qiganimizda quyidagi rang nomlari ham uchratamiz:

Azroq	Axmar	Yoqutiy
Asali	Bayzo	Jigarrang
Asvar	Birinji	Zulshoni
Axzar	Gulfom	Kofirgun
Kuxli	Sandali	Qiyirgun
Lolagun	Maxsar	Mino
Mushkin	Nili	Noranjiy
Obgun	Obnus	Rayhoniy
Rummoniy	Savod	Samoviy
Tovusiy	Tutakiy	Shafaqgun

Ko‘pincha u yoki bu ranglarni nomlashda ustun rang nomi odidan shu rangning tarkibidan o‘rin olgan boshqa rang nomi ham qo‘shib ishlataladi. Masalan: qizil jigar rang, ko‘k yashil, ko‘kintir sariq va shu kabilar.

### **RANGLARNING INSON KAYFIYATIGA TA’SIRI**

Amaliy mashg‘ulotlar misolida.


*Qo‘limga yashil bo‘yoq olsam, bu narsa mening o‘t rasmini chizmoqchi  
ekanligimni bildirmaydi. Matiss.*

Rang inson hayotida muhim ahamiyat kasb etuvchi hodisadir. U turli vaziyatlarda odamga turlicha ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun biz ayrim paytlarda ranglarni “quvonchli” va kayfiyatimizni tushkunligini ifoda etish mumkin bo‘lgan “xira” deb atashimiz beziz emas. Insonlar qadim davrlardayoq rangning ana shunday

xususiyatlarini inobatga olib, o‘z faoliyatlarida unumli foydalanib kelganlar. Ayniqsa, rassomlar uning bu xususiyatlaridan ustalik bilan foydalanganlar. Asarlarga har xil ranglar bilan jilo berib, odamlar kayfiyatiga turlicha ta’sir ko‘rsatadigan tasvirlar yaratishga erishganlar. Shuning uchun tasviriy san’atning juda ko‘p turlari va janrlarida ranglarni ishlata bilish juda katta ahamiyatga egadir.

Tabiat in’om etgan ranglar bisyor. Har kim o‘ziga yoqqan rangda libos kiyishni, unga moslab tuqli, sumka, hattoki soch turmagigacha alohida e’tibor berishni xohlaydi. Ba’zilar uchun xona rangidan tortib, jihozlarning rangigacha o‘z didiga mos bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi.<sup>1</sup>

Ma’lumki, ranglar butun hayotimiz davomida bizni hamma joyda o‘rab olgan. Rangsiz narsa va hodisalar bo‘lmaydi. Rang kishilar hayotida katta rol o‘ynaydi, hattoki u kishilarga fiziologik va psihologik ta’sir ko‘rsatadi. Odamlar ranglar yordamida narsalarni, voqealarni idrok etishlari, tanishlari, bilib olishlari mumkin.



Masalan, odamlarni rangiga qarab, ularni qaysi mamlakatdan ekanligi, ularning sog‘ligi, turmush tarzi va boshqa xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo‘lishimiz mumkin. Odamlarni kiyimlarining rangiga qarab ularning yoshi, jinsi, ma’lumoti, xarakteri va boshqa shu kabi jihatlari haqida tasavvur hosil qilinadi.

Rang dunyoni anglab etish va tartibga solish vositalaridan biridir. U har doim buyumning tabiiy alomati bo‘lib xizmat qilmaydi. Ammo qandaydir

<sup>1</sup> N.Yusupova. Ranglarga yashiringan sirlar. T.: Davr press, 2010. 152 b.

g‘oyaning mavjudligini bildiradi.<sup>2</sup> Ranglar yordamida odamlar o‘z hayoti va mehnatini yengillashtiradilar, hattoki sog‘liqlarini ma’lum miqdorda yaxshilashlari ham mumkin. Ranglarni insonlar hayotidagi ahamiyatini tushungan holda bir qator olimlar maxsus tadqiqotlar olib borganlar. Shu maqsadda Tokioda dunyoda yakkayu-yagona rang instituti tashkil etilgan bo‘lib, unda ranglarni turli sohalarda qo‘llanilishi hamda ularning samaradorligi o‘rganiladi.

Rang tabiat ko‘rinishing mo‘jizasi. U buyum haqidagina ma’lumot berib qolmasdan, balki insonga ruhiy ta’sir ko‘rsatib, uni hayajonga soladigan fikr va xayollarini qo‘zg‘atish qudratiga ega. Masalan, sariq rang quyosh ramzi hisoblanadi, havorang suv va kenglik, yashil rang maysa va o‘rmonlar ramzidir. Qizil olov va qon timsolidir. Aytishlaricha, qizil “yonadi”, “charaqlaydi”. Hindu, Xitoyning ba’zi mamlakatlarida haftaning har bir kuni ma’lum bir rang bilan bog‘liq.

Dushanba – sariq;

Seshanba – pushti;

Chorshanba – yashil;

Payshanba – zarg‘aldoq;

Juma – havorang;

Shanba - pushti, binafsha;

Yakshanba – qizil.

Ranglarning kishi organizmiga fiziologik ta’sirini bir qator olimlar o‘rganishgan va tadqiqotlar olib borishgan. Ular orasida mashhur nemis olimi va shoiri, rangshunos Gyote, rus ruhshunosi V.Bexterovning fikrlari diqqatga sazovordir. Gyote “Ranglar nazariyasi” nomli mashhur asarida “Sariq rang ko‘zni quvontirib, yurakni kengaytiradi, ruhimiz tetik bo‘ladi va biz darhol iliqlikni his etamiz” deb yozgan edi. Uning fikricha, zangori rang sovuq hissiyatni uyg‘otsa, qizil rang aksincha qo‘rqtish, yashil rang ezgulik, xotirjamlik hislarini paydo qiladi. Yashil rangni Gyote ko‘zni va ko‘ngilni tinchlantiruvchi qobiliyatga ega deb hisoblaydi.

---

<sup>2</sup> N.Yusupova. Ranglarga yashiringan sirlar. T.: Davr press, 2010. 152 b.

Rangning kishilarga ta'siri to'g'risida Fransiyalik texnika estetikasi bo'yicha mutaxassis Jak Venoning fikrlari diqqatga sazovordir. U rangni har narsaga qodir ekanligi, u nur, xotirjamlik va hayajonni hosil qilishi, hattoki odamlarni larzaga solishi, falokatga olib kelishi ham mumkinligi haqida yozgan edi.

Ba'zi bir psixoterapevt, nevropotologlar shu yo'nalishdagi bemorlarni davolashda ranglardan foydalanmoqdalar. Bunda ular ko'proq tinchlantiruvchi yashil, zangori ranglarni turli tuslari bilan kasal ko'rish xonasini bo'yab, yashil chiroq, turli nur taratuvchi chiroqlar yordamida bemorlarga ta'sir ko'rsatib, ijobiy natijalarga erishmoqdalar.

Ranglarning insonlarga ruhiy ta'siri kattadir. Oddiy misol: ko'chalarga o'rnatilgan svetofor chiroqlarini olaylik. Yo'lovchilar albatta chorrahalardagi svetoforga qaraydilar. Qizil chiroq yonsa – yurish kishilar uchun xavfli, sariq chiroq – o'tish uchun tayyor bo'lib tur, agarda yashil chiroq yonsa – o'tish mumkin deganidir. Mana ko'rdingizmi, bu ranglar kishi ruhiyatiga tez va katta ta'sir ko'rsatadi va bunga doim rioya qilishga o'rgatadi.

Hayotda to'ylar: bola tug'ilishi, beshik to'yi, nikoh to'ylari kabi voqealar va bayramlar bo'lib o'tadi. Bularning hammasi yaxshilik, xursandchilik, quvnoq, jo'shqin hayotni ko'rsatuvchi voqealardir. Shunday mavzularda ishlagan rassomlarimizning ijodiga nazar tashlasak, unda suvratning umumiy rang tuzilishida yorqin, sho'xchan rangdagi bo'yoqlar ishlatilganini ko'ramiz, och havorang, och sariq, to'q sariq, zarg'aldok, och qizil, pushti va shunga o'xshash ranglarga ko'zimiz tushadi.

O'rol Tansiqboyevning "Jonajon o'lka", "Qayroqqum suv ombori", "Mening qo'shig'im" kabi asarlari bizga ma'lum. "Mening qo'shig'im" manzara asari shunday ishlanganki, bir qarashda kishini o'ziga maftun qiladi, shunday joylarga borib, dam olish ishtiyoqini uyg'otadi. Manzaraning old tomonida ochilib turgan yorqin sariq rangli tog' gulini, orqa tomonda tog' manzarasini va qishloqni ko'ramiz. Moviy manzara tomoshabinlarni o'z bag'riga chorlayotgandek his uyg'otadi.

Xorijiy mamlakatlarda ranglarni kishilar ruhiyatiga ta'sirini bilgan mutaxassislar savdo ishlarini yaxshilash maqsadida restoranlarni, savdo uylarini,

ishlab chiqargan mahsulotlarini kishi e'tiborini o'ziga tortadigan ranglar bilan bo'yashga harakat qiladilar. Ayrim ishlab chiqarish korxonalarida ish joylarini ishchilar charchamasligi uchun, ish unumini oshirish maqsadida iliq ranglar bilan bo'yab, ma'lum samaradorlikka erishganlar.

Rangning foydasini tushungan ayrim kishilar, ayniqsa ayollar boshqalarning e'tiborini o'ziga tortish maqsadida qizil, sariq, zarg'aldoq kabi iliq rangli kiyimlar kiyishadi. Bunday kiyinish ayrim ayol o'qituvchilar uchun ham xos bo'lib, ular darsda bolalar e'tiborini ko'proq o'zlariga qaratishni maqsad qilib qo'yadilar. Rang tuslaridan to'g'ri foydalanimasa, inson organizmiga salbiy ta'sir ko'rsatib, har-xil kasalliklarga duchor qilishi mumkinligini ham unutmaslik kerak. Ko'pincha, uyimiz devorini bo'yash uchun rang tanlashda, parda uchun qaysi rangdagi gazlamani olish xususida maslahatlashib o'tirmaymiz, chunki o'zimizni bu sohada bilimdon deb hisoblaymiz. Bu sohada biror umumiyl tavsiya bo'lishi mumkin emasdek tuyuladi. Ammo shunday tavsiyalar bor, ular rangning inson organizmiga ta'sirini o'rganish natijasi hisoblanadi.

Odamlar ishlaydigan, yashaydigan sharoit ham ana shunday qulay bo'lishi kerak. Bu sharoitning eng muhim tashkil etuvchilaridan biri rangdir. Shuning uchun ham professor Rabkin laboratoriyasida yashash va ishlatish joylarini bo'yash uchun eng qulay ranglar aniqlangan. Bular och sariq, och ko'k, ko'kish, moviy va to'q sariq ranglardir. Lekin bu ranglarni ham bilib ishlatish kerak. Masalan, pol, devor, eshik, deraza romlari bir xil rangga bo'yalsa, qanday xunuk manzara hosil bo'lishini tasavvur qilish mumkin. Rangning bir xil bo'lishi ham zararli. Shuning uchun olimlar ko'zga tashlanib turadigan detallar bo'lishini tavsiya etadilar. Chunonchi, har bir zavod, ishlab chiqarish korxonalarida rassom sariq devorga havorang plakat ilib ko'yishni tavsiya qiladi. Bu esa ham estetik, ham fiziologik jihatdan foydali bo'lib chiqdi. Olimlar ishlab chiqqan standartlar loyihasida devorlar, pol, shiftlarni optimal ranglarga bo'yash, kichik buyumlarni ko'zga tashlanadigan ranglarga bo'yash tavsiya etiladi. Maktab sinfonalarini bo'yash uchun esa boshqa uslub taklif etiladi. Buning sababi shuki, bolalar rangni kattalarga nisbatan boshqacharoq "sezadi". Buning ustiga turli yoshdagи bolalar turli rangni yaxshi ko'radi.

Yana bir misol. “Ishdagi ishq mojarosi” filmida asosiy qahramon ayol, bir katta tashkilotning direktori, o‘z xodimlariga qo‘pol muomalada bo‘ladi, kiygan kiyimlari ham nihoyatda qo‘pol, sidirg‘a, to‘q jigarrang matodan tikilgan bo‘lib, o‘ziga yarashmaydi. Ayol o‘ziga uncha qaramaydi, o‘zi yosh bo‘lsa ham qari ko‘rinadi, shuning uchun xodimlar unga “kampir” deb laqab qo‘yishgan. Nihoyat bu ayol o‘zining kamchiliklarini sezadi va kotibasi bilan maslahatlashib, kiyimini o‘zgartiradi, sho‘xchan, yorqin rangli kiyim kiyadi, orasta bo‘lib ishga kelganda, unga nisbatan munosabat o‘zgaradi, odamlar yuzida tabassum paydo bo‘ladi va ishga bo‘lgan munosabat tamomila yaxshi tomonga o‘zgaradi. Bunga sabab birinchidan, ayolning xodimlarga bo‘lgan munosabati, muomalasi bo‘lsa, ikkinchidan, kiyim ranglari sho‘xchan, o‘zining yoshiga mos bo‘lishidadir.

Ranglar borliqni bilishni ifodali vositalaridan biri hisoblanadi. Tasviriy san’at asarlarida badiiy obraz yaratiladi. Bunda ranglarning ta’sirchan kuchidan foydalilaniladi. Rang orqali narsalar hajmini, materialini va inson ichki kechinmalarini, fazo kengliklarini, tog‘u-toshlarning ulug‘vorligi-yu, o‘simpliklar dunyosi hamda insoniyatning boy tarixini ifodalash mumkin. Rassomlik bu shunday san’atki, rassom tomonidan bo‘yoqlarda ishlangan rasm bizni xuddi hayotdagi kabi hayojonga soladi. Rassom bo‘yoq va chiziqlar vositasida yuz va harakat ifodasini, soya va nur yorug‘ligini tasvirlaydi. Shuning uchun ham yaxshi asar, agar u yorqin, tiniq bo‘yoqlarda ijro etilgan bo‘lsa, shodlik kayfiyatini uyg‘otadi. Demak, rassomlik san’atida asosiy tasvir vositasi rang bo‘lib, tasvir turli ranglar va bir rangning bir necha ko‘rinishi (och, to‘q va h.k.)dan foydalaniib hosil qilinadi. Zamonaviy rangshunoslik aniq maqsadlar: davolash muassasalari, ishlab chiqarish korxonalari, rassomlar va arxitektorlar faoliyatida o‘z ifodasini topadi. Umuman olganda inson turmush tarzining hamma sohalarida rang ishtiroki ilmiy asoslangan, maqsadli, unumli foydalishni ko‘zda tutadi. Chunki rang birinchi navbatda inson ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatadi. Ishlab chiqarish unumdorligini oshirish, kasalni sog‘ayish jarayonini tezlashtirish, hordiq chiqarish, kayfiyatni boshqarish va shu kabilarga yordam beradi. Xullas, rang odam faoliyatini boshqarishda eng asosiy omillardan biridir.

## RANGTASVIR HAQIDA TUSHUNCHA

**Rangtasvir** deb tekis yuzada turli rang va materiallar yordamida bajariladigan tasvirga aytildi. Unga asosan bo‘yoqlar – moyli bo‘yoq, akvarel, guash, tempera shuningdek, rangli qalamlar, ko‘mir, qalam, pastel, sous, sangina kabi badiiy materiallar bilan ishlash xarakterlidir.

Rangtasvir asarlari qog‘oz, mato, karton, devor, oyna, yog‘och kabi tekis yuzlarga ishlanadi. Rangtasvir asosini rasm tashkil etadi. Har qandy rangtasvir ishda avval uni rasmi ishlab olinadi. Unda kompozitsiya, yorug‘soya, rang asosiy o‘rinni egallaydi. Rangtasvir asarlari bajarilishi texnikasi jihatdan turli-tuman bo‘ladilar. Ular moy bo‘yoqli, temperali, freskali, mozaikali, vitrajli, akvarelli, guashli, pastelli hisoblanadilar.

Rangtasvirning quyidagi turlari mavjud:

- ✓ Dastgohli rangtasvir;
- ✓ Monumental rangtasvir;
- ✓ Miniatyura rangtasviri;
- ✓ Dekorativ rangtasvir;
- ✓ Teatr-dekorativ rangtasviri<sup>3</sup>.


**Dastgohli rangtasvir** deganda rassomlarning maxsus asbob-dastgoh (molbert) yordamida ishlaydigan suvratlari tushuniladi. Dastgohli rangtasvir asarlari uncha katta bo‘lmagan o‘lchovda yuqorida qayd qilib o‘tilganidek mato, karton, oyna, faner kabi tekis yuzali materiallarga moybo‘yoq, akvarel, guash, tempera bo‘yoqlari bilan ishlanadi. Bunda ko‘pincha moybo‘yoq qo‘llaniladi.

---

<sup>3</sup> R.Hasanov. Tasviriy san’at asoslari. O‘quv qo‘llanma. T.: “G‘afur G‘ulom”, 2009. 6-b.



*Etyud (A.Abdullayev)*



*Keksa kishi portreti (U.Rajabov)*

**Monumental rangtasvir** atamasi monumental (mahobatli), ya’ni katta o‘lchovdagi, rangtasvir ma’nosini anglatadi va u ko‘pincha binolarning ichki va tashqi devorlariga tempera bo‘yoqlari bilan ishlanadi. Monumental rangtasvir asarlarining freska, mozaika, vitraj, panno kabi turlari mavjud<sup>4</sup>. **Freskalar** asosan bino devorlariga, **pannolar** esa matolarga bo‘yoqlar bilan ishlanadi. **Mozaika** - turli tabiiy va tashlandiq materiallar-rangli oyna parchalari, toshlar, sintetik materiallardan bino devorlariga yoki tekis materiallar ustiga ishlanadi. **Vitraj** esa binolarning derazalari, eshiklari, oynalari ustiga bo‘yoqlar yordamida ishlanadi. Vitrajlar uy ichkarisi va tashqarisidan ham bir xil ko‘rinadi.



*Afrosiyob devoridagi surat (freska)*


---

<sup>4</sup> S.Abdirasilov, N.Tolipov. Rangtasvir darslik. T.: “Innovatsiyo-ziyo”, 2019.

**Miniatyura** (mo‘’jaz) rangtasviri deganda bezirim, juda kichik, jajji, nozik san’at asarlari tushuniladi. Miniatyura rangtasviri o‘rtalarda kitob bezagi bilan bog‘liq holda rivoj topdi. U kitoblardagi bosh, yakuniy bezak, zarhal harf, illyustratsiyalardan iborat bo‘lgan. Rangtasvirning bu turi Sharqda, shu qatori Movarounnahrda katta shuhrat qozondi. Hozirda u mustaqil san’at turi sifatida nafaqat kitoblarni, balki quticha, nosqovoq kabilarni bezatishda ham qo‘llanilmoqda. Shuningdek, u katta bo‘lmagan o‘lchovda mustaqil san’at asari sifatida ham tayyorlanmoqda.




*Ulug‘bek portreti (Ch.Ahmarov)*



*Nodirabegim (Q.Basharov)*

**Dekorativ rangtasvir** asarlari mustaqil amaliy ahamiyat kasb etib, u binolarni ichki va tashqi devorlarni bezatishda qo‘llaniladi. Ular panno shaklida shuningdek, quticha, patnis, sandiq, shkaflarni bezatishda qo‘l keladi. Bino ichini bezatishga xizmat qiladigan naqshlar, frizlar, namoyon kabi mayda elementlar ham dekorativ rangtasvirga kiradi.



*Oila (A.Mirzayev)*



*Birinchi farzand (X.Ziyaxanov)*



*Natyurmort (A.Xabibullayeva)*

**Teatr dekorativ rangtasviri** spektakl dekoratsiyalari, unda ishlatiladigan grim, sahna jihatlari bilan bog‘liq. Ular teatr rassomi tomonidan tayyorlanib, spektakl mazmunini tomoshabinga keng va chuqurroq singdirishga yordam beradi. Bu bezaklarda rassomlar sahnaning yoritilishi va ranglarga alohida e‘tibor qaratadilar. Spektakl bezaklari unda ifodalangan voqeа sodir bo‘layotgan joy, davr, muhit to‘g‘risida tomoshabin tasavvurlarini boyitadi, voqealarni idrok etishni osonlashtiradi va faollashtiradi.

Rangtasvirni puxta o‘rganishda ko‘pgina yetuk rassom va pedagoglar (oq va qora bo‘yoqlarda) naturani tusda tasvirlashga katta ahamiyat bergenlar. Bu masalada D.N.Kardovskiy shunday degan: “Tusni yorug‘lik orqali yetkazishdan ko‘ra ranglarda berish murakkabdir. Shuning uchun rangtasvirga o‘tishda, yorug‘likdagi tusga bo‘lgan ko‘nikmaga ega bo‘lish kerak...”<sup>5</sup>. Demak, rangtasvirning boshlang‘ich kursida grizayl texnikasida mashqlar bajarishni tavsiya qilamiz. Tasvir qalamda puxta bajarilgach, har bir narsa va buyumning materialligi, uning hajmi, tus munosabatlari ranglar vositasida hal qilishga o‘tiladi. Realistik qalamtasvirning bunday sifatlariga har bir narsalardagi (shula, yorug‘lik, yarim soya, soya va h.k.) soya-yorug‘lik gradatsiyasi va ularning ranglardagi o‘zaro tusli farqlarini to‘g‘ri hal etish orqali erishish mumkin. Tusli farqlar nimani anglatadi? Rang jihatidan ba’zi narsalar naturada zich va to‘qroq, boshqalari esa ochroq ko‘rinadi. Ayrim narsalarda shaxsiy

<sup>5</sup> <https://artlot24.ru/article/kardovskij-dmitrij-nikolaevich-227>

soya to‘qroq va zichroq “og‘ir” (masalan, chinni ko‘zada, cho‘yan qozonda), boshqalarida esa soyalar ancha ochroq “nozik” (gipsli vaza, qog‘oz rulon va h.k.) ko‘rinadi. Bu tusli farqlarni qalamtasvirda ham teng ravishda mutanosiblikda ifodalash kerak. Bu chog‘da narsalar orqasidagi fanni ham hisobga olish zarur. Natura qo‘yilmasidagi barcha narsalarni tusga nisbatan foning och-to‘qligi munosabatlarining to‘g‘ri olinayotganligi kenglikni ko‘rsatishga imkon tug‘diradi.



*Sharqona go‘zallik. ( A.Anvarova)*

Tasviriy san’atda manzara, turmush, natyurmort, portret, tarixiy animal, afsonaviy, marina, nyu, interyer janrlari mavjud. Janr rassom nimani tasvirlayotganligiga qarab belgilanadi. Masalan, odam rasmini ishlansa “Portret” tabiat va shahar ko‘rinishlari tasvirlansa “Manzara”, hayot va mehnat jarayonlari tasvirlansa “Maishiy” janriga xos bo‘ladi. Shuningdek, tarixiy voqealarni tasvirlash tarixiy janrga, hayvonlarni tasvirlash, animal janr deb yuritiladi. Afsonaviy, marina, natyurmort, nyu janrlari ham bo‘ladi. “Animal” janri lotincha “anima” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib hayvon ma’nosini anglatadi. “Batal” janri esa fransuzcha “bataille” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib jang, “Nyu” janri fransuzcha bo‘lib yalang‘och ma’nosini bildiradi. Ayrim asarlar ikki va undan ortiq janrlarga mansub bo‘ladi. Masalan, portret va nyu marina va manzara v. b.

Har bir janr o‘z o‘rnida yana bir qancha janrlarga bo‘linishi mumkin. Masalan: tabiat manzarasi janri, shahar manzarasi janri, industrial manzara janri, dengiz manzarasi (marina) janri yoki portret janrini tantanavorlik, ishqiy, guruhli janrlarga bo‘lish mumkin.

Vaqt o‘tishi bilan janrlar tabaqlashib, mustaqil tus olgan. Masalan, manzara janiridan marina, tarixiy janrdagi batal janri ajralib chiqqan.

**Manzara janri.** Tasviriylar san’atda tabiat, shahar, industrial, interyer ko‘rinishlarini tasvirlanishi manzara janrga taalluqlidir. Manzara janridagi asarlarning ayrimlari bevosita tabiat manzarasini haqiqiy ko‘rinishini tasvirlasa, boshqalari ijodiy tarzda xayolan ifodalangan bo‘ladi. Ba’zan bu ikki hol bir asarda bo‘lishligi ham mumkin. Manzara janrini paydo bo‘lishi juda uzoqlarga borib taqaladi. Manzara tasvirlarining keng tarqalishini qadimgi Sharq va Krit orollari misolida ko‘rish mumkin. Manzara janrini ikki xili mavjud. Birinchisi mustaqil turi bo‘lib, unda faqat manzara aks ettiriladi. Ikkinci turida manzara biron tasvir fonida tasvirlanadi. Masalan, portretni orqa tomonida tabiat yoki shahar manzarasi tasvirlanishi mumkin. Manzara janrida samarali ijod qilga rassomlardan I.Levitan, I.Shishkin, O’.Tansiqboyev, I.Ayvazovskiy, N.Karaxan kabilarni ko‘rsatish mumkin.



*Qish manzarasi (A.Abdullayev)*

**Maishiy janr.** Bu janrdagi asarlar kishilarning hayoti, mehnati maishiy bilan bog‘liq bo‘lib, undan ko‘proq oila, mакtab, dam olish, shaxsiy va jamoatchilikdagi hayot jarayonlari aks etgan bo‘ladi. Turmush janridagi asarlar nafaqat hozirgi kun

odamlarining, balki o‘tmishdagi kishilarning turmush tarzi va hayoti haqida ham ma’lumot beradi. Tasviriy san’atda turmush janri XVII asrda Gollandiyada paydo bo‘lgan. Bu janr o‘z mazmuni jihatdan ancha murakkab bo‘lib, natyurmort, manzara, animal v.b. janrlar bilan bog‘liq holda yaratiladi. Turmush janri ko‘proq rangtasvirda, kamroq grafika va haykaltaroshlikda ishlataladi. Turmush janrida ijod qiluvchi rassomlar nihoyat ko‘p bo‘lib, ulardan eng mashhurlari Kamoliddin Behzod, Leonardo do Vinchi, Ilya Repin, Zokir Inog‘omov, Javlon Umarbekov va boshqalar hisoblanadilar.



*Choyxonachi (Z.Inog‘omov)*

**Portret janri.** “Portret” fransuzcha “portrait” so‘zdan olingan bo‘lib, kishilarni chehrasini xuddi o‘ziga o‘xshatib tasvirlash ma’nosini bildiradi. Portretda kishilar yakka, ikki yoki bir guruh tasviri ishlanadi. Unda odamlarning boshi, beligacha yoki bo‘y-basti bilan tasvirlanishi mumkin. Portret tasviriy san’atning uchchala turida ham qo‘llaniladi. Portret o‘z harakteri jihatdan monumental, miniatyurali, dastgohli, ishqiy, xajviy bo‘ladi. Rassomlarning ijodida uning **avtoportret** xili keng tarqalgan. Avtoportretni rassom oynadagi o‘z aksiga qarab tasvirlaydi. Portret rassomlar tomonidan naturani kuzatish, xotiradan yoki shaxsni fotosidan, shuningdek, arxiv materiali va adabiy tasviridan, o‘tmishdagi yashab o‘tgan odamlarning topilgan kalla suyagini o‘rganish asosida yaratiladi.




*Zulayho portreti (A.Abdullayev)*




*Avtoportret (A.Qo'yliyev)*

**Tarixiy janr.** Rangtasvirning bu janrida insoniyat tarixidagi muhim voqealar va qahramonlar hayoti tasvirlanadi. Rassom biron ta tarixiy voqealar ko‘rinishini tasvirlash uchun avvalo o‘sha voqeaning boshqa tarixiy voqealar orasidagi o‘rni va muhimligini anglab yetishi kerak bo‘ladi. So‘ngra u o‘sha voqea sodir bo‘lgan davr haqidagi adabiy manbalarni, tarixiy me’morchilik obidalari hamda u yerdan topilgan topilmalarni o‘rganadi, ular asosida qoralama va ranglamalar yaratdi. Mavzuga aloqador tarixchilar bilan suhbatlashish voqea mazmuni hamda suvrat detallarini aniqlashtirishga yordam beradi.



*Ark (J.Usmonxo'jayev)*



*Ko‘hna Samarqand (J.Usmonxo'jayev)*

**Batal janri.** Bu janrdagi asarlarda rassomlar urush janrlarini shavq-zavq, ko‘tarinlik, qahramonlik kabilarda ifodalashga harakat qiladilar. Bunday asarlarda

ko‘proq vatanparvarlik g‘oyalari ilgari suriladi. Ularda nafaqat jang ko‘rinishlari, balki harbiylarning jangdan tashqari vaqtdagi turmushi ham ifodalanishi mumkin. Jang manzaralarini tasvirlash qadimdan ma’lum bo‘lsada, uning san’atda ifodalanishi qadimgi Sharqda o‘z ifodasini topgan. Lekin bu janrni shakllanishi XV-XVI asrlarga to‘g‘ri keladi. Ayniqsa u Sharq miniatyura rangtasvirida alohida o‘rinni egallaydi. Bu janr XV-XVIII asrlarda Yevropa rangtasvirida keng rivoj topdi. Tarixiy va batal janrlarda samarali ijod qilgan rassomlar qatoriga Kamoliddin Behzod, Maxmud Muzaxxib, D.Velaskes, K.Bryulov, P.Pikasso, P.Rubens, F.Goyya, V.Surikov, A.Deyneka, M.Nabihev, R.Choriyev kabilarni kiritish mumkin.



*Kompozitsiya (A.Anvarova)*



*Singil (M.Samsonov)*

**Animal janri.** Animal lotincha “anima” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “hayvon” demakdir. U tasviriy san’atning deyarli barcha turlarida mavjud. Hayvon va qushlarni rasmini ishlovchi rassomlarni **animalist** rassomlar deb yuritiladi. Bunday rassomlarning tabiatga, uni mahsuli hayvon zotiga muhabbati kuchli bo‘ladi. Animal janr tasviriy san’atning mustaqil janri bo‘lsada, hayvonlar tasviri turmush, portret, natyurmort janrlarida ham aks etishi mumkin.



*Ot (A.Bruno)*



*Tustovuq (D.Abdug‘aniyev)*

**Afsonaviy janr.** Afsonaviy janrdagi tasviriy san’at asarlarida hayotda uchramaydigan, biroq xalq tomonidan xayolan o‘ylab topilgan odam va hayvonlar, baliqlar, voqeа, hamda hodisalar tasvirlanadi. Xususan, afsonaviy janrdagi asarlarda osmonda uchib yurgan qanotli farishtalar, norasida qanotli bolalar, uch boshli ajdarlar, yarmi odam – yarmi ot “kentavrлar”, yarmi ayol – yarmi baliq, rusalkalar, yarmi ayol – yarmi qush jonzotlar, odam shaklidagi shoxli, ko‘zi bitta bahaybat devlar kabilar tasvirlanadi. Afsonaviy janr tasviriy san’atning hamma turlarida (rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika) keng qo‘llaniladi. Afsonaviy janrda ijod qilgan rassomlar qatoriga Rafael Santi, Sharq miniatyrachi rassomi Sulton Muhammad, M.Vrubel, V.Vasnetsovlarini kiritish mumkin.



*Kenja botir*

**Marina janri** Marina fransuzcha so‘zdan olingan bo‘lib, dengiz ko‘rinishi ma’nosini bildiradi. Marina rangtasvirning janri sifatida Yevropa san’atida alohida o‘rinni egallaydi. Dengiz, dengiz hayotidagi muhim voqealar, harbiy kemalar tafsilotini aynan tasvirlashda bezak sifatida ham xizmat qiladi. Golland manzarachi rassomlari marina imkoniyatlarini kengaytirib, dengiz tabiatini va u bilan bog‘liq baliqchilar hayotini haqqoniy aks ettirishda Ya.Porsellis, S.de Vliger, X.Sigers v.b. samarali mehnat qildilar. Keyinchalik K.Verne, U.Terner, X.Mesdag, I.Ayvazovskiy kabi rassomlar yuksak badiiy saviyada asarlar yaratdilar. O‘zbekistonda marina janrida F.Madgazin, O‘.Tansiqboyev, A.Mo‘minovlar ham ijod qilishgan. Dengiz ko‘rinishlari portret, tarixiy batal, turmush janridagi suvratlarda orqa planda ham tasvirlanadi.



*To'qqizinchi val (I.Ayvazovskiy)*



*Tog' oqimi (Yu.Klapoux)*

**Nyu janri.** Nyu so‘zi fransuz tilidan olingan bo‘lib, yalang‘och degan ma’noni anglatadi. Nyu portret janridan ajralib chiqib, mustaqil ahamiyat kasb etgan. Mazkur janrda rassomlar ko‘pincha yalang‘och ayollar rasmini ishlaydilar va bu orqali ular tanasidagi nafosatni ko‘rsatmoqchi bo‘ladilar. Nyu portret janri kabi yakka yoki ko‘p figurali bo‘ladi. U tasviri san’atning barcha turlarida (rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika) keng qo‘llaniladi.

**Interyer janri** bu janrda binolarning ichki ko‘rinishi, foye, yo‘lak, xonalarning ichki ko‘rinishlari, ulardagi jihozlar, bezak-gullar tasvirlanadi.



### *Bino ichki ko‘rinishi*

**Natyurmort janri.** (frans. nature morte – jonsiz tabiat) – tasviriy san’at janri.

Insonning atrofini o‘rab turgan real maishiy, joylashgan va kompozitsiya jihatidan yaxlit guruhni tashkil qilgan narsalar tasvirlanadi. Shuningdek, bu janrda yaratilgan rassomlik asari ham natyurmort deb ataladi. Asosan, dastgohli rassomlik (rangtasvir va grafika)da, qisman haykaltaroshlik (asosan, relyef)da ishlanadi. Natyurmortda “jonsiz buyumlar” (Masalan, uy-ro‘zg‘or buyumlari, quroq-aslahalar va boshqalar)dan tashqari, tabiatdan ajratib olingan va buyum, narsalarga aylantirilgan jonli tabiat narsalari (stoldagi baliq, vazadagi gul va boshqalar) ham tasvirlanadi. Asosiy mavzuni to‘ldirish uchun ba’zan natyurmortga odamlar, hayvonlar, qushlarni ham kiritish mumkin. Maishiy asosidan ajratib olingan mayda narsalarning muhimligi boshqa janrlarga nisbatan natyurmortda namoyon bo‘ladi. Natyurmortda tasvirlanayotgan (mustaqil aks ettirilayotgan yoki kartinalarda asar mazmunini boyitadigan va to‘ldiradigan) buyumlar o‘z egasining fe'l-atvorini, qiziqishini yoritishga yoki buyumlarning shakli, rangi, fakturasi, tuzilishidagi ritmik, dinamik va statik holatlarini ko‘rsatishga qaratilgan.



*Ijodiy natyurmort (E.G'afforov)*



*Ijodiy natyurmort (A.Abdullayev)*



Natyurmort Qadimgi Misrda devorga ishlangan freskalarda, ellinizm davri mozaikalarida, Xitoyda (“qush va gullar”, VII asrdan) kompozitsiya bo‘lagi sifatida ma’lum bo‘lgan. Yevropada XVI asr oxiri XVII asr boshlaridan mustaqil ahamiyatga ega bo‘ldi. Eng taraqqiy etgan davri XVII asrga to‘g‘ri keladi, XVIII asrdan “Natyurmort” atamasi qo‘llanila boshladi. Italian rassomi M.Kapaeajo va uning izdoshlari (karavajizm) natyurmortning keng tarqalishida muhim rol o‘ynadi: gul va mevalar, dengiz in’omi – baliq, qisqichbaqalar sevimli mavzuga aylandi. Gollandiya (V.K.Xeda, P.Klas v.b.), Flandriya (F.Sneyders, Ya.Feyt v.b.), Ispaniya (F.Surbaran v.b.), Fransiya (J.B.Sharden v.b.) va boshqalarda yuksak taraqqiyotga erishdi. P.Sezann, A.Matiss, J.Brak va boshqalar natyurmortga ko‘proq e’tiborni qaratganlar. XX asrda natyurmort realistik an’analarini Meksikada D.Rivera, D.Sikeyros, Italiyada R.Guttuzolar davom ettirdi. Rossiyada natyurmort XVIII asrda paydo bo‘ldi, ko‘zni aldaydigan “xuddi o‘ziga o‘xshash” (aldamchi) rasmlar ishlashdan (G.N.Teplov, P.G.Bogomolov va boshqalar) shakllanib bordi, XIX asr I yarmida haqqoniylilikka, borliqni o‘zidan go‘zallik topishga harakat qilindi (M.A.Vrubel, K.Korovin, I.E.Grabar va boshqalar), shakl, faktura va bezakdorlik borasidagi yutuqlarga erishildi (P.Kuznetsov, P.P.Konchalovskiy, A.Kuprin va boshqalar)<sup>6</sup>. O‘zbekiston tasviriy san’atida natyurmort unsurlari qadimgi davr san’atida (Masalan, Afrosiyob devoriy rasmlarida – vazadagi mevalar), miniatyura san’atida (Kamoliddin

<sup>6</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Natyurmort>

Behzodning Shayboniyxon portretida tasvirlangan buyumlar – siyohdon, qamchi) uchraydi. natyurmortning haqiqiy shakllanishi va rivojlanishi XX asrning 30-50-yillariga to‘g‘ri keladi. Ayni shu davrda rassomlarning ijodida natyurmortning dastlabki namunalari paydo bo‘ldi: L.Nasriddinov (“Nonli natyurmort”), Sh.Hasanova (“Xitoy chinnisi bilan ishlangan natyurmort”) va boshqa; M.Kurzin, V.Rojdestvenskiy, V.Ufimsev, N.Kashina, Kovalevskaya, O.Tatevosyan, S.Abdullayev, V.Fadeyev, Yu.Yelizarov va boshqalar natyurmort yaratdilar. 60-80 yillarda L.Salimjonova, Yu.Taldikin, R.Choriyev, V.Burmakin, Ye.Melnikovlar ijodida natyurmort keng o‘rin tutadi. Rassomlar R.Axmedov, A.Ikromjonov, M.Nuriddinov va boshqalar natyurmortda samarali ijod qilib, natyurmortning taraqqiyotini ta’minladilar.

### **NATYURMORT** **Xolis fonda geometrik jismlardan tashkil topgan sodda natyurmort ishlash** **(grizayl)**

Tus rangtasvirning ajralmas qismi hisoblanib, u rang bilan birgalikda tasvirlanadi. Tajribasiz rassomlar o‘zlarining dastlabki ishlarida faqat rang bilan ovora bo‘lib qo‘yilmadagi tus yaxlitligini yoddan chiqaradilar, natijada ish sifati buziladi. Rangtasvirni puxta o‘rganishda ko‘pgina yetuk rassom va pedagoglar (oq va qora bo‘yoqlarda) naturani tusda tasvirlashga katta ahamiyat bergenlar. Bu masalada D.N.Kardovskiy shunday degan: “Tusni yorug‘lik orqali yetkazishdan ko‘ra ranglarda berish murakkabdir. Shuning uchun rangtasvirga o‘tishda, yorug‘likdagi tusga bo‘lgan ko‘nikmaga ega bo‘lish kerak...”. Demak, rangtasvirning boshlang‘ich kursida grizayl texnikasida mashqlar bajarishni tavsiya qilamiz. Tasvir qalamda puxta bajarilgach, har bir narsa va buyumning materialligi, uning hajmi, tus munosabatlari ranglar vositasida hal qilishga o‘tiladi. Realistik qalamtasvirning bunday sifatlariga har bir narsalardagi (shula, yorug‘lik, yarim soya, soya va h.k.) soya-yorug‘lik gradatsiyasi va ularning ranglardagi o‘zaro tusli farqlarini to‘g‘ri hal etish orqali erishish mumkin. Tusli farqlar nimani anglatadi? Rang jihatidan ba’zi narsalar naturada zinch va to‘qroq, boshqalari esa ochroq ko‘rinadi.




*O'quv natyurmorti (grizayl)*

Ayrim narsalarda shaxsiy soya to‘qroq va zichroq “og‘ir” (masalan, chinni ko‘zada, cho‘yan qozonda), boshqalarida esa soyalar ancha ochroq “nozik” (gipsli vaza, qog‘oz rulon va h.k.) ko‘rinadi. Bu tusli farqlarni Gipsli geometrik shakllardan va unga o‘xhash maishiy buyumlardan natyurmort qalamtasvirda ham teng ravishda mutanosiblikda ifodalash kerak. Bu chog‘da narsalar orqasidagi fonni ham hisobga olish zarur.

Natura qo‘yilmasidagi barcha narsalarni tusga nisbatan foning och-to‘qligi munosabatlarining to‘g‘ri olinayotganligi kenglikni ko‘rsatishga imkon tug‘diradi. Tus munosabatlarini eng to‘q narsalardan yoki chuqur ichki soyalardan boshlab ko‘rsatilishi to‘g‘riroqdir. Har bir narsalaming tus kuchini bir-biri bilan solishtirish zarur, narsalaming o‘zaro och joylarini, soyani soyalar bilan, yarim tusni yarim tuslar bilan taqqoslash zarur. Qandaydir to‘q idishda shaxsiy soya undan tushuvchi soyaga nisbatan to‘qroqdir. Mevalardagi yorug‘lik eng yorug‘ joyiga qaraganda to‘qroq bo‘lishi mumkin. Tasvirda va naturadagi narsalarni bir-biri bilan doimiy taqqoslash orqali ular orasidagi farqlami kamayishiga erishish zarur. Eng to‘q narsalar yoki uning soyasi – bu qora baxmalda va ko‘mir rangida emasligini esda tutish kerak. Qora buyumlar va ulaming soyalarini ancha yumshoqroq, lekin juda ham to‘q qora tusda ishslash kerak emas. Hattoki qora baxmalni tasvirlashda ham qalam yoki qora bo‘yoqni bor kuchidan foydalanish noto‘g‘ri, aks holda qog‘ozda yoki matoda qora teshik paydo bo‘ladi. Shuningdek, naturadagi juda oq narsalarni toza oq bo‘yoqlar

bilan tasvirlashning iloji yo‘q. Chunki u oq bo‘yoqqa nisbatan ancha to‘qroq bo‘ladi. Ishning birinchi bosqichida – asosiy munosabatlami aniqlash kerak. Naturadagi asosiy obyektlarning yorug‘-soya munosabatlari: foning och-to‘qligi, narsalaming sirtidagi och-to‘qligiga va ularning o‘zaro bir-birlariga nisbatan aniqlanadi. Avvalo, qo‘yilmadagi narsalaming umumiy tusi bir sidra qoplanadi. Agar umumiy munosabatlarni noto‘g‘ri olsak qalamtasvirning aniqligi, keyingi alohida narsalaming hajmli shakllaridagi yorug‘-soya ham, tasvir aniqligi va haqqoniyligini, materiallik va kenglikni ko‘rsata olmaymiz. Ishni soyadan yorug‘likka qarab yuritish kerak, buning ustiga soya joylariga imkon boricha bo‘yoq qatlamini yupqa va nozik berish, yorug‘likni esa ularga nisbatan quyuq bo‘yoqda ancha to‘qroq qatlamli va aniq surtmalar bilan qoplash zarur. Grizayl texnikasida soya, yarimsoya, reflekslarni birdaniga kerakli tusda mos bo‘yoqlar bilan qoplash, (iloji boricha bo‘yoqni qayta-qayta berishni takrorlamasdan) bo‘yoq surtmalarini shakl yo‘nalishi bo‘yicha harakatlantirish kerak.



*O‘quv natyurmorti (grizayl)*

Masalan, silindrsimon shaklga ega bo‘lgan narsaga turli tasodifiy yo‘nalishda surtmalar berilsa, ushbu shaklning aylanaligini ko‘rsatish mushkuldir. Naturadan tasvirlayotib narsalaming munosabatlarini nafaqat tus kuchi bo‘yicha balki uning aniqligini ham, narsalar sirtlarining kontrastli chegaralarini ham kuzatishimiz kerak. Har bir narsaning ko‘rinib turgan tashqi ko‘rinishi o‘zining ko‘lamida turlicha: qandaydir narsaning yoritilgan chap tomoni yorug‘lik kuchi bo‘yicha fonga nisbatan

yaqinroq bo‘lishi mumkin. Shu narsaning o‘ng tomonidagi chegarasi tus jihatdan fon bilan deyarli qo‘shilib, uning yuqori qirrasi fonda yaqqol ajralib turadi.

Asosiy narsalar va ularning sirtlari orasidagi tus munosabatlarini to‘g‘ri ko‘rsatishdan tashqari, har bir narsaning hajmli shaklini soya-yorug‘ bilan ham puxta ishslash kerak. Gipsli narsalaming sharsimon va silindrsimon shakllar (yorug‘likdan soyaga bora turib) yuzasini har bir millimetri asta-sekin to‘qlashtiriladi, buning ustiga shaxsiy soyasining eng to‘q joyi soya tomonidagi narsa chegarasida emas, aksincha bir oz ichkari tomonida bo‘ladi. Tashqi ko‘rinishning o‘ng tomonidagi shahsiy soyasi refleks tufayli yoritiladi. Tekisliklar bilan chegaralangan (prizma, kub va h.k.) narsalaming yorug‘-soyalarini bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o‘tish izchilligining hususiyati shundan iboratki, har bir tekislik boshqa tekislik tusidan farqlanib o‘zining ma’lum tusiga ega bo‘ladi. Bunday narsalaming hajmi, hamma tomonlari tekislik bilan chegaralangan kenglikdir. Yorug‘likka qaratilgan tekisliklardagi yoyilib tushayotgan tekisliklarga nisbatan, yorqinlik ravshan yoritilgan bo‘ladi. Shakllami turlicha tusli tekisliklar bilan yasashning bunday tartibi katta qismlarga ham, kichik shakllarga ham tegishlidir. Tusli tasvirlash mobaynida tasvirlovchidan narsalarning uzoqligini hisobga olish zarur bo‘ladi. Agarda bir qatorga bir xil narsalarni turli masofada joylashtirsak, yaqindagi narsalaming mayda bo‘laklari va materiallik fakturasi ancha aniqroq ko‘rinadi. Uzoqlashgan sari bu aniqligi yo‘qolib xiralasha boradi. Uzoqdagi obyektlar siluetli va tekis (yassi) bo‘lib ko‘rinadi. Old ko‘rinishdagi buyumlarning soya-yorug‘ qismlari olisdagidan ravshan va aniqroq ko‘rinadi. Narsalaming hajmli shakliga puxta ishlov berilgandan so‘ng, ularni umumlashtirishga o‘tish zarur. Har bir narsani tasvirlash jarayonida alohida mayda bo‘laklami, ularning yorug‘ soyasini maromiga yetkazib ishslash lozim. Narsalar guruhini yaxlit bir butun tasvirlash uchun, hammasini bir vaqtida kuzatib, har birining yorug‘ va soya joylarini barchasiga nisbatan taqqoslash kerak. Narsalar guruhini yaxlitligini saqlash-haqqoniy tasvirlashning asosiy shartidir.

## Gipsli geometrik jismlardan tuzilgan natyurmortning rangtasvirini cheklangan ranglarda bajarish

Gipsli geometrik jismlardan tuzilgan natyurmortni tasvirlash dastlabki ta’lim bosqichlarida bajarish orqali o’zlashtirish mumkin. Masalan, N.Tenning “Natyurmort” asari misol bo‘la oladi. Unda mahoratli bo‘yoq surtmasi, kolorit monandligi va shakl plastikasini kuzatish mumkin. Ular orqali rangtasvirning asosiy qonuniyatlarini tez va qulay o’zlashtirish mumkin. Ya’ni, perspektiv va konstruktiv qurilish, shaklning soya-yorug‘ligi va rangda tasvirlanishi, tasvirlanayotgan narsalarning fazoviy uzoqlashishdagi holati va materialligi, tus va rang munosabatlari, manzara va interyer, inson boshi va qomatini tasvirlashdagi birlik va uyg‘unlik hisoblanadi. Natyurmortni xona ichida, ochiq havoda, soyada va quyoshda, tabiiy va sun’iy yorug‘likda tasvirlash lozim. Bu esa o‘z navbatida o‘quv va ijodiy vazifalarni samarali amalga oshirishga puxta zamin yaratadi.



*O‘quv natyurmorti*

Natyurmortni amaliy tasvirlashning dastlabki bosqichida biroz soddaroq so‘ngra esa narsa va buyumlarning bir guruhini tasvirlash kerak. Narsalarning bir guruh yig‘ilganini tasvirlash uchun natyurmort kompozitsiyasini to‘g‘ri tashkil etish muhimdir. U ikki jihat asosida tuziladi: natura qo‘yilmasini tashkiliy qismi (narsalarni tanlay bilish va ularni kompozitsion chiroyli joylashtirish) naturaga nisbatan ko‘rish nuqtasini aniqlash va qog‘oz yuzasida qo‘yilmani tasvirlash.

O‘quv natyurmort qo‘yilmasini tuzishda quyidagi qonun-qoidalarga rioya qilish kerak. Har bir o‘quv natyurmortning mazmuni rangtasvir dasturida ko‘rsatilganidek aniq maqsad va vazifaga ega bo‘lishi kerak. Talabalar natura qo‘yilmasini tasvirlash jarayonida aynan qanday nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirishlarini tasavvur eta olishimiz kerak. O‘quv vazifalardan tashqari, natyurmort estetik talablarga ham javob berishi kerak: buyum va narsalar aynan mavzuga oid bo‘lishi, mazmun jihatdan ma’noli va ta’sirchan bo‘lishi va ma’lum g‘oyani ilgari surishi kerak. O‘quv natyurmorti ijodiy natyurmortdan vazifasi bilan farqlanadi: o‘quv vazifa muvaffaqiyatli yechim topishi uchun narsalar saralanadi, guruhlashtiriladi va shunday yoritiladiki, qo‘yilma natijali yakunlanadi. O‘quv natyurmortida biroz bo‘lsada shartli olinishiga imkon yaratiladi.


Natyurmort kompozitsiyasi ustida odatda narsalardan natura qo‘yilmasini tuzmasdan ilgari fikrlar yurgiziladi. O‘quv yoki ijodiy vazifalar asosida rassom ongida bo‘lajak natura qo‘yilmasining xomaki obrazi haqida tasavvur hosil bo‘ladi<sup>7</sup>. Natyurmortni tuzish mobaynida shakli mayda naqshlar bilan bezatilgan, konstruktsiyasi murakkab narsalardan yiroqda bo‘lgan ma’qul. Murakkab buyumlarga burmali issiq rangdagi gazlamani kiritish mumkin. Natyurmort qo‘yilmasi haddan tashqari murakkab shaklli va rang jihatdan rang-barang bo‘lishi qo‘yilmadagi rang munosabatlar mohiyatini tushunishga qiyinchilik tug‘diradi. Shuning uchun oq ranlardagi buyumlardan tashkil topgan natyurmortni maqsad qilib olamiz. Natyurmort qo‘yilmasini ufq chizig‘iga nisbatan pastda joylashgani ma’qul, chunki buyum va narsalarning ostki qismi (ularning asosi) stol ustida aniq ko‘rinib turishi kerak. Agar narsalarning asosi bir chiziq bo‘yicha qo‘yilsa, stol yuzining gorizontal tekisligi ko‘rinmay qoladi, bu esa natyurmortni fazoviy yechimiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

---

<sup>7</sup> Д.Мурсалимов. Живопись. Учебное пособие. Т.: “Iqtisod-moliya”, 2010.

## **Xolis fonda oddiy shakldagi uy-ro‘zg‘or buyumlardan tashkil topgan natyurmort rangtasvirini bajarish**


O‘quv natyurmort qo‘yilmasini tuzishda quyidagi qonun-qoidalarga rioya qilish kerak. Har bir o‘quv natyurmortning mazmuni rangtasvir dasturida ko‘rsatilganidek aniq maqsad va vazifaga ega bo‘lishi kerak. Talabalar natura qo‘yilmasini tasvirlash jarayonida aynan qanday nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirishlarini tasavvur eta olishimiz kerak. O‘quv vazifalaridan tashqari, natyurmort estetik talablarga ham javob berishi kerak: buyum va narsalar aynan mavzuga oid tanlanishi, mazmun jihatdan ma’noli va ta’sirchan bo‘lishi va ma’lum g‘oyani ilgari surishi kerak. O‘quv natyurmorti ijodiy natyurmortdan vazifasi bilan farqlanadi: o‘quv vazifa muvaffaqiyatli yechim topishi uchun narsalar saralanadi, guruholashtiriladi va shunday yoritiladiki, qo‘yilma natijali yakunlanadi. O‘quv natyurmortida bir oz bo‘lsada, shartli olinishiga imkon yaratiladi.



*O‘quv natyurmorti bosqichlari*

Aslida natyurmort rangtasvir va qalamtasvirni o‘zlashtirishning qat’iy qonunlari (konstruktiv va havo perspektivasi) uchun mutanosibligi, hajmi (materialnost) (narsadan ishlanganligi) uchun joylanishi, rang uyg‘unligining umumiyligi, tasvirlanayotgan narsa va o‘rtaning o‘ziga xos o‘zgarishligini tasvirlash uchun estetik xususiyatlari va jozibadorligini aks ettirishdir. Natyurmort rassomning mohirona ko‘rish idrokli (“ko‘zning o‘tkirligini”) ko‘rishni to‘g‘ri qo‘yish mahoratini oshiriladi. Natyurmort hamma janrlarning debochasidir.


Shuning uchun o'sha mohir rassomlar jiddiy asar yaratishdan oldin boshqa janrlarda: manzara, portret va hokazo natyurmortlarni chizadilar. Natyurmort orqali haqiqiy dunyoning ko'p qirraligi o'rganiladi. Davrning tarbiyaviy-estetik talablariga mosligi bilan birga natyurmortdagи zamondoshimizning dunyo go'zalligiga qarash tasavuri va ichki dunyosining boyligi, shu bilan birga odamning keng qalbiy histug'ulari aks ettiriladi. Uning o'zini ko'rib turgan dunyoga bo'lган munosabati ham namoyon bo'ladi<sup>8</sup>. Rangtasvirning plastik va koloristik mahorat qirralari yaqqol ko'rindi. Natyurmortni ko'r-ko'rona mexanik tarzda jonsiz narsalarni ko'chirgandek qog'oz yuzasiga ko'chirib qo'yish kerak emas. Faol mualliflik munosabati bo'lishi kerak, naturaga nisbatan uning o'xshashligi bilan birga undagi o'ziga xos nafisligini g'oyaviy – san'at asari darajasiga olib chiqish zarur.



*O'quv natyurmorti bosqichlari*

Har bir buyum hayotda o'zining "yashash joyi" va biror bir maqsadda ishlataladi. Uni boshqacha sharoitdan o'rtaga joylashtirsa, u boshqa buyumlarning uyg'unligini buzadi. Shuning uchun natyurmortni qo'yganda har bir buyum o'z joyini topishi sahnalashtirilgan, to'plangan buyumlar orasida va o'zaro bir-birini to'ldirib, ma'naviy boyitishi va umumiyl ko'zlangan g'oyaviy maqsadni aniq oolib berishga xizmat qilishi kerak.

<sup>8</sup> G'.Abdurahmonov. Kompozitsiya asoslari. T.: "Iqtisod-moliya", 2008



*O'quv natyurmorti bosqichlari*

Natyurmort dag'al, qo'pol narsalar yig'indisi bo'lishi kerak emas. Syujetli – tematik yo'nalishli narsalarni saralab tanlab, natyurmort tashkil qilishda uning plastik – rangtasvir yechimadagi xulq-atvorini aniqlab beradi, oydinlashtiradi.



*O'quv natyurmorti bosqichlari*

O'quv-metodik natyurmortlarda hamma natyurmortlarda bo'ladigan majburiyatlar baravariga berilmasligi mumkin va asta-sekinlik bilan beriladi. Masalan: bir natyurmortda qarama-qarshi ranglarning uyg'unligini berish, buyumlarning qo'shnichiligidagi – plastik umumiylilik, ma'noning birdamligi yo'qolmasligi kerak.



*O'quv natyurmorti bosqichlari*

Natyurmort qimmatbaho va juda chiroyli buyum bo'lishi shart emas, aksincha u buyum shakli shamoyili oddiy odamlar ishlatgan bo'lsa, maqsadga muvoviq bo'ladi. U misol uchun samovar, choy idishi, idishlar majmuasi, gullar, tosh oyna, siyohdon, kartoshka, qora non va hokazo. Tasvir qurishning metodik ketma-ketligini o'zlashtirib olish boshlovchi rassomga ishonch bilan, uzliksiz, har bir bosqichni alohida ravishda qanday hal etilishini bilgan holda ishlash imkoniyatini beradi. Rasm ustida ishlashning amaliy tajribasini egallagan yosh rassom yakuniy natijani oldindan ko'ra bilish ko'nikmasiga ega bo'la boshlaydi. Lekin oldindan ko'ra bilish ko'nikmasiga ba'zilar o'ylaydigandek, har kim o'z holicha emas, balki pedagog yordamida, butun tasvir qurish jarayonini bosqichma-bosqich o'zlashtirish natijasidagina ega bo'lishi mumkin

### **Qisqa muddatda uy-ro'zg'or buyumlardan tashkil topgan natyurmort rangtasvirini bajarish**

Avvalo, qo'yilgan natyurmortni diqqat bilan kuzatib, uni tahlil qilib olinadi. Kompozitsiyani ijodiy masalalari, asosan postanovka (natyurmort tuzish) qo'yish vaqtida hal etilgan bo'ladi ya'ni natyurmort qismlari o'rtasida uzviy bog'lanish bo'lib, hamma narsa birgalikda, yaxlit bo'lib ko'zga yaqqol tashlanib turmog'i lozim. Lekin unga har xil nuqtalardan qaraganda umumiyligi ko'rinishi ham, qismlarning o'lchamlari va nisbatlari ham o'zgarib boshqacharoq ko'rinishi qolganini sezamiz. Demak,

natyurmort tasvirining ta'sirchan bo'lishi va undan ko'zlangan maqsadga to'la erishish uchun qo'yilgan natyurmortga nisbatan eng qulay va qiziqarli ko'rish nuqtasini topish kerak. Buning uchun har xil joyga o'tirib yoki turib, naturaga yaqinlashib yoki uzoqlashib qarab ko'rish kerak bo'ladi. Bunda har gal kuzatuvchi ko'zlarning balandligi o'zgarishi bilan birga ufq chizig'i va ko'rish markazi o'zgarib turadi. Qo'yilgan natyurmortga nisbatan eng yaxshi ko'rish nuqtasini topib, ufq chizig'ini shunga muvofiq belgilab olish muhim ish bo'lib, tasvirning umumiy kompozisiyasi ko'p jihatdan unga bog'liq. Natyurmort tasvirini surat tekisligida to'g'ri joylashtirish bir qator masalalarni hal etishni talab qiladi. Shuning uchun ishni boshlashdan oldin bir necha hajmli xomaki rasm bajarib ko'rish maqsadga muvofiqliр.



*O'quv natyurmorti*

Chizilgan eskizlardan eng muvaffaqiyatlari chiqqanini tanlab, shu asosda katta orginal tasvir boshlanadi. Endi originalni surat tekisligiga nisbatan qanday kattalikda olinishiga alohida e'tibor berilishi loim, chunki ayrim narsalar tasviri juda kata bo'lib ketib, hamma predmetlar sig'may qolishi mumkin. Yoki narsalar tasvir formatga nisbatan juda kichik bo'lib qolib trofida bo'sh joy qoldirilsa, natyurmortning ma'nodorligi yo'qoladi.

Tasvirni qog'oz yuzasida to'g'ri joylashtirish masalasi hal bo'lgan har qanday tasviriy san'at asarining poydevori bo'lgan chiziqli rasmni boshlasa bo'ladi. Qo'yilgan natyurmortning umumiy holati, prinsiplari aniqlangach, qog'oz yuzasida uning umumiy o'lchamlari yengilligi va balandligi yengil-yelpi chiziqlar bilan

belgilab chiqiladi. Har bir narsaning umumiy shakli qismlarning nisbiy o‘lchamlari va va predmetlarning asoslari orasidagi masofalar ham ohista chiziladi. Bu ishlar qalamni qog‘oz yuzasida tez-tez yurg‘azib, natyurmort bilan taqqoslab turib bajariladi. Har qaysi predmetning o‘zicha shakli, kata-kichikligi, tutgan o‘rni aniq bo‘lgandan keyin, ularning tuzilishini tahlil qilib, sinchiklab kuzatib, u shakllardagi perspektiv qisqarishlar kuzatiladi. Predmetlarning shaklini tahlil qilish chiziqli rasm ishslashda g‘oyat ma’suliyatli bosqichdir, chunki u rasm ishlovidan mantiqiy fikr yuritishni va obrazli tasavvur qilishni talab etadi.

Predmetlarning surat teksligida joylashtirish vaqtida, albatta ularning asoslarini to‘la chizib chiqish kerak. Bu tadbir har qaysi predmetning o‘rnini va alohida narsalar o‘rtasida qolgan masofani to‘g‘ri ifodalashga yordam beradi. Shunday qilinganda ba’zi narsalarning “muallaq” bo‘lib qolishi yoki bir narsaning ikkinchisiga o‘yib kirgandek tuyulib qolishiga yo‘l qo‘ymaydi. Umuman, hajmdor narsalarning rasmini chizganda, ularni shishadan yasalgan tiniq deb faraz qilib, uning ko‘zga yaqqol ko‘rinmaydigan jihatlarini ham bilinar-bilinmas chizib chiqish maqsadga muvofikdir. Chiziqlar vositasida hajmlarning chegaralarini belgilash bilan birga ularning shakllarini yanada aniqroq bo‘lishiga erishishning yana bir yo‘li yirik shtrixlar bilan shaxsiy va tushuvchi soyalarni qoralab olishdir. Bu tadbir narsalarning mutanosibligini yanada ta’kidlash va shakllarini aniqroq tasvirlashga olib keladi.



*O‘quv natyurmorti*

Natyurmortdagи narsalarning fazoviy holati va hajmini realistik tarzda tasvirlash uchun ularning qay holatda turganini aniq chizish bilan bir qatorda


perspektiva va yorug‘-soya qonunlarini puxta bilish va ularni amalda qo‘llash yuzasidan ma’lum ishlar olib borish kerak bo‘ladi. Predmetlar shaxsiy va tushuvchi soyalarning chegaralari topilgandan keyin, har bir narsaning yorug‘ soya, siyrak soyalari birma-bir ranglar yordamida ishlab chiqishga o‘tiladi. Har bir narsaning hajmdorligi va materialni haqqoniq qilib tasvirlash uchun natura bilan tasvirdagi soya, yarim soya va reflekslarning nisbiy munosibligiga erishishga harakat qilish kerak. Buning uchun esa natyurmortdagi eng to‘q soya yorug‘ yerlarni aniqlab olib ana shu eng to‘q soyadan boshlash lozim. Ana shu paytda natyurmort rangiga xos umumiyl och to‘qlikni to‘g‘ri aniqlash g‘oyatda muhim. Buning uchun natyurmort yoniga bironta qop-qora narsa qo‘yib qaralsa, eng quyuq soya ham unga nisbatan oqishroq bo‘lib ko‘rinadi. Agar shu narsa natyurmort tarkibida bo‘lganda, qoralashni o‘shandan boshlash va qora qalamni bor imkoniyatidan foydalanish lozim bo‘ladi. Natyurmortdagi hech bir narsa qoraligi baxmalga teng kelmasligini hisobga olib, soyalarni bir oz kuchsizroq tonlarda berishimiz kerak. Xudi shu yo‘l bilan natyurmortdagi eng yorug‘ yerning och-to‘qligi darajasini aniqlasa bo‘ladi.

### **Kontrast fonda turli shaklli va har xil fakturalii buyumlardan tuzilgan natyurmortning rangtasvirini bajarish**

Sovuq tusda berilgan sodda natyurmortni tasvirlash dastlabki ta’lim bosqichlarida bajarish orqali o‘zlashtirish mumkin. Masalan, G‘.Abdurahmonovning “Milliy natyurmort” asarini namuna sifatida keltirish mumkin. Unda mahoratl bo‘yoq surtmasi, kolorit monandligi va shakl plastikasini kuzatish mumkin. Ular orqali rangtasvirning asosiy qonuniyatlarini tez va qulay o‘zlashtirish mumkin. Ya’ni, perspektiv va konstruktiv qurilish, shaklning soya-yorug‘ligi va rangda tasvirlanishi, tasvirlanayotgan narsalarning fazoviy uzoqlashishdagi holati va materialligi, tus va rang munosabatlari, manzara va interyer, inson boshi va qomatini tasvirlashdagi birlik va uyg‘unlik hisoblanadi.

Natyurmortni amaliy tasvirlashning birinchi bosqichida biroz sodda, keyin esa detal va buyumlarning bir guruhini tasvirlash kerak. Narsalarning bir guruh yig‘ilganini tasvirlash uchun natyurmort kompozitsiyasini to‘g‘ri tashkil etish

muhimdir. Bu keltirilgan jihatlar asosida natura qo‘yilmasini tashkiliy qismi (narsalarni tanlay bilish va ularni kompozitsion chiroqli joylashtirish) naturaga nisbatan ko‘rish nuqtasini aniqlash va qog‘oz yuzasida qo‘yilma tasvirlanadi.



*O‘quv natyurmorti*

O‘quv natyurmort qo‘yilmasini tuzishda quyidagi qonun-qoidalarga rioxalish kerak. Har bir o‘quv natyurmortning mazmuni rangtasvir dasturida ko‘rsatilganidek aniq maqsad va vazifaga ega bo‘lishi kerak. Talabalar natura qo‘yilmasini tasvirlash jarayonida aynan qanday nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirishlarini tasavvur eta olishimiz kerak. O‘quv vazifalardan tashqari, natyurmort estetik talablarga ham javob berishi kerak: buyum va narsalar aynan mavzuga oid bo‘lishi, mazmun jihatdan ma’noli va ta’sirchan bo‘lishi va ma’lum g‘oyani ilgari surishi kerak. O‘quv natyurmorti ijodiy natyurmortdan vazifasi bilan farqlanadi: o‘quv vazifa muvaffaqiyatli yechim topishi uchun narsalar saralanadi, guruhlashtiriladi va shunday yoritiladiki, qo‘yilma natijali yakunlanadi. O‘quv natyurmortida biroz bo‘lsada shartli olinishiga imkon yaratiladi. Natyurmort kompozitsiyasi ustida odatda narsalardan natura qo‘yilmasini tuzmasdan ilgari fikrlar yurgiziladi. O‘quv yoki ijodiy vazifalar asosida rassom ongida bo‘lajak natura qo‘yilmasining xomaki obraqi haqida tasavvur hosil bo‘ladi.

Natyurmortni tuzish mobaynida shakli mayda naqshlar bilan bezatilgan, konstruktsiyasi murakkab narsalardan yiroqda bo‘lgan ma’qul. Murakkab buyumlarga burmali issiq rangdagi gazlamani kiritish mumkin. Natyurmort

qo‘yilmasi haddan tashqari murakkab shaklli va rang jihatdan rang-barang bo‘lishi qo‘yilmadagi rang munosabatlar mohiya-tini tushunishga qiyinchilik tug‘diradi. Shuning uchun oq ranlardagi buyumlardan tashkil topgan natyurmortni maqsad qilib olamiz. Rangtasvir mukammal qalamtasvirga asoslanadi. Shuning uchun rangtasvir jarayoniga o‘tishdan oldin natyurmortning qalamtasvir kompozitsiyasini surat tekisligida tasvirlash xususiyatlariga qisqacha to‘htalib o‘tamiz.



*O‘quv natyurmorti (G.Toliyeva)*

Tasvirlovchi narsalar to‘plamiga (natyurmort) ma’lum bir ko‘rish nuqtasidan qaraydi va u ko‘z qarashiga qat’iy ravishda kuzatish perspektivasi qonuniyatining o‘zaro bog‘liqligi bilan namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, naturadagi narsalar o‘zaro yoritilganligi va bir-biriga bog‘langan bo‘lib, ular oralig‘ida reflekslar, yarim soyalar, soyalar va yorug‘liklar taqsimoti ma’lum bir tartibda bo‘ladi. Natyurmort kompozitsiyasini shunday tuzish kerakki, uni qaysi nuqtadan kuzatganda ham u yaxlit bir butun ko‘rinishiga erishmoq zarur. Bu ishning muvaffaqiyatli chiqishi pedagogning shaxsiy badiiy didi va tajribasiga bog‘liqdir. Naturaga nisbatan qiziqarli ko‘rish nuqtasini tanlab olgach, qog‘oz varog‘i qanday o‘lchamda bo‘lishligini aniqlash zarur. Qog‘oz varog‘ida ifodalanadigan natyurmort qo‘yilmasini naturadan to‘g‘ri aniqlab tasvirlay olish kerak.

## PORTRET

### To‘q fonda qiyofachi portretini bir xil rangda ishlash (grizayl)

**Portret** (frans. portrait - tasvir) – tasviriy san’at janri; real hayotda mavjud bo‘lgan yakka, ikki yoki bir guruh kishilar, rassom tasavvurida paydo bo‘lgan xayoliy qiyofalarning tasviri. Rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika, shuningdek, foto san’atining muhim janrlaridan biri. Portret asosida aniq shaxsning qiyofasini abadiylashtirish yotadi. Portretning muhim tomoni tasvirning tasvirlanuvchi (model, asli)ga aynan o‘xshashlidir. Ijodkor portret orqali tasvirlanuvchi shaxsning ma’naviy dunyosini, ijtimoiy hayotdagi o‘rnini, kasbi, jamiyatdagi mavqeini aks ettiradi va uning shu jihatlari orqali davr xususiyati, siyosiy iqtisodiy ahvol haqida ma’lumot bera oladi. Rassomning kasbiy mahorati, portret ishslash uchun tanlagan materiallari esa uning yaratgan asarlariga takrorlanmas o‘ziga xoslik baxsh etadi. Tarixan portretning xilma-xil tur va ko‘rinishlari shakllangan: ishlanish usuli, bajaradigan vazifasi, shakli, mazmuniga ko‘ra, dastgoh (kartina, byust, grafika varag‘i) va monumental (monumental haykal, freska, mozaika), tantanavor parad va intim, hajviy, satirik portret tarzida tasvirlanuvchining faqat bosh qismi, beligacha, butun bo‘y-basti bilan old va yon tomonidan ishlanishi mumkin. Shuningdek, turli tarixiy davrlarda nishon, tanga, medallar yuzasiga (medal yasash sanati) ishlangan, gemma (gliptika), medalyonlarda miniatyura portret keng tarqalgan. Portret janridagi bir asarda ko‘pincha bir necha janrlar qo‘shilishi mumkin. Portretda tasvirlanuvchi sof holda (zaminsiz, ya’ni atrof muhitni aks ettirmasdan), tinch holatda yoki biror faoliyati bilan ma’lum muhitda ishlanishi mumkin. Shu tufayli shartli ravishda portret – portret va portret-kartina (janqli portret)ga ajratiladi. Portretning keng tarqalgan turlaridan biri – avtoportret. Tasvirlanayotgan kishilar soniga ko‘ra, yakka, qo‘shaloq va guruh portretlarga bo‘linadi.



*Portret ishlash bosqichlari*

Odam portreti rangtasvirini ishslash eng murakkab vazifalardan hisoblanadi. Chunki kiyim ichida turadigan quyoshda qorayib rang olmagan odam terisi juda nozik rang tuslarida bo‘ladi. Uni tasvirlash rang-tusini o‘xshatib ifodalash ancha qiyindir. Odam gavdasini har xil ko‘rinishlarini turli vaziyatlarda aks ettirish inson tanasi tuzilishi, anatomiyasи, o‘ziga xos shakl-shamoyilini o‘rganishni plastik yechimini topishni taqozo etadi. Shuning uchun chizilayotgan odam keksami, yoshmi gavdasining konstruktiv tuzilishini avvalo qalamrasvirini chizib o‘rganilishi kerak. Buning uchun mayda qalamchizmalar, ranglavhalar bajarish, shakl va rang-tus munosabatlarini tahlil qilib o‘rganish lozim. Shundan so‘ng eng maqbul, chiroyli ko‘zga yaxshi tashlanadigan joydan turib tasvirni qog‘ozga tushirish boshlanadi. Unda gavdaning sathda joylashishi kompozitsiya tomonlari puxta o‘ylab chiziladi. Rangda ishlaganda katta shakl, rang uyg‘unligiga ham alohida e’tibor bilan qaralishi, mutanosiblik barcha narsada o‘z aksini topishi kerak. Ular esa gavdaning har bir bo‘lagi rangi, soya yorug‘ligida namoyon etiladi.


Odam gavdasi uning soya va yorug‘ joylarini yaxlit qilib ham tus, ham rang jihatidan ishlab chiqishdan boshlanib, hajmni ko‘rsatishga yordam beruvchi unsurlar yarimsoya va aks shu'lalarni belgilash bilan davom ettiriladi, bunda rang kalloriti ham muvofiq tarzda ko‘rsatiladi. Ayniqsa gavdaning qorin va bel qismlari rang jihatidan juda murakkab, nozik tovlanishli tuslarga egaligi bilan ajralib turadi. Ularni “nyuans”lar yordamida ishlash mumkin. Bunda ham tus, ham rang o‘zgarishlarning salgina farqi ham hisobga olinadi. Odam tanasi agar kiyim bilan tasvirlanayotgan bo‘lsa, kiyim tana qismlari shakliga monand burmalar hosil qilib turishi hisobga olib ishlanadi. Aks holda uning tagidagi badan sezilmaydi va tana plastikasi buzilib ko‘rinadi. Buning uchun avvaldan matolarning qanday burmalanib turishi, natyurmortlar ishlash jarayonlarida ham yaxshi o‘zlashtirib olingani qo‘l keladi.

Gavda tasvirini bajarganda odamning bosh va yuz qismlari bo‘yin va boshqa a’zolar bilan birgalikda uzviylikda tasvirlanadi. Shu tomoniga e’tibor qaratilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki ularni plastik va qurilish jihatida bog‘lab ifoda etish ancha murakkab bo‘lib, sa’y-harakatlar talab qiladigan mashg‘ulotdir.


### **Milliy mato fonida ayol portreti ranglavhasini qo‘li bilan ishlash**

Odam qomati rangtasvirini ishlash eng murakkab vazifalardan hisoblanadi. Chunki kiyim ichida turadigan quyoshda qorayib rang olmagan odam terisi juda nozik rang tuslarida bo‘ladi. Uni tasvirlash rang-tusini o‘xshatib ifodalash ancha qiyindir. Odam gavdasini har xil ko‘rinishlarini turli vaziyatlarda aks ettirish inson tanasi tuzilishi, anatomiysi, o‘ziga xos shakl-shamoyilini o‘rganishni plastik yechimini topishni taqozo etadi. Shuning uchun chizilayotgan odam keksami, yoshmi gavdasining konstruktiv tuzilishini, avvalo qalamda chizib o‘rganilishi kerak. Buning uchun mayda qalam chizmalar, ranglavhalar bajarish, shakl va rang-tus munosabatlarini tahlil qilib o‘rganish lozim. Shundan so‘ng eng maqbul, chiroyli ko‘zga yaxshi tashlanadigan joydan turib tasvirni qog‘ozga tushirish boshlanadi. Unda gavdaning satxda joylashishi kompozitsiya tomonlari puxta o‘ylab chiziladi. Rangda ishlaganda katta shakl, rang uyg‘unligiga ham alohida e’tibor bilan qaralishi,

mutanosiblik barcha narsada o‘z aksini topishi kerak. Ular esa gavdaning har bir bo‘lagi rangi, soya yorug‘ligida namoyon etiladi.




*Ayol kishi portreti (R.Axmedov)*



*Kelin (R.Choriyev)*

Odam gavdasi uning soya va yorug‘ joylarini yaxlit qilib ham tus, ham rang jihatidan ishlab chiqishdan boshlanib, hajmni ko‘rsatishga yordam beruvchi unsurlar yarimsoya va aks shu'lalarni belgilash bilan davom ettiriladi, bunda rang kalloriti ham muvofiq tarzda ko‘rsatiladi. Ayniqsa gavdaning qorin va bel qismlari rang jihatidan juda murakkab, nozik tovlanishli tuslarga egaligi bilan ajralib turadi. Ularni “nyuans”lar yordamida ishlash mumkin. Bunda ham tus, ham rang o‘zgarishlarning salgina farqi ham hisobga olinadi. Odam tanasi agar kiyim bilantasvirlanayotgan bo‘lsa, kiyim tana qismlari shakliga monand burmalar xosil qilib turishi hisobga olib ishlanadi. Aks holda uning tagidagi badan sezilmaydi va tana plastikasi buzilib ko‘rinadi. Buning uchun avvaldan matolarning qanday burmalanib turishi, natyurmortlar ishlash jarayonlarida ham yaxshi o‘zlashtirib olingani qo‘l keladi. Gavda tasvirini bajarganda odamning bosh va yuz qismlari bo‘yin va boshqa a’zolar bilan birgalikda uzviylikda tasvirlanadi. Shu tomoniga e’tibor qaratilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki ularni plastik va qurilish jihatida bog‘lab ifoda etish ancha murakkab bo‘lib, sa’y-harakatlar talab qiladigan mashg‘ulotdir. Inson gavdasini rangtasvirini qay yo‘sinda, qanday ko‘rinishda ishlamang unda albatta qo‘l tasvirning o‘rni kattadir. Chunki qo‘l harakatlari, turish holati orqali gavda, inson tanasi

vaziyatlari, harakatlari holatlari yaqqol bo‘rtib ko‘rinadi. Qo‘l yaxshi aks ettirilsa tasvir e’tiborli va to‘kis ko‘rinish kasb etadi.




*Onalik (L.Basharova)*




*Shirin (Ch.Ahmarov)*

Kiyimli portretda qo‘l tasviri hatto insonning “ikkinci yuzi” deb ham atalishi bejiz emas. U orqali inson kayfiyati, uning ichki ruhiy kechinmalari ham bo‘rttirib ko‘rsatilishi mumkin. Shuning uchun qo‘lga ikkinchi portret sifatida qarab, xuddi inson yuzini qanday e’tibor bilan ishlansa uni ham shunday diqqat bilan tasvirlamoq kerak. Rangtasvir ishlashning nozik tomonlari ko‘p. Ulardan biri turli sirtlarni ifodali tasvirlash masalasiadir. Chunki natyurmortda ham, odam tasvirini bajarganda ham chizilayotgan narsalarning moddiy ekanligini ko‘rsatish muhim hisoblanadi.



*O‘zbek ayoli (Yu.Skorikov)*




*Sharq tabassumi (U.Rajabov)*

Inson tanasi, boshi, qo‘l, oyogi va boshqa a’zolarini tasvirlash paytida ayniqsa kiyim-kechagi, bosh kiyimi va boshqalarni sirti ko‘rinishi o‘xshab chiqishi uchun ular ham rang, tusi xususiyatlari bilan to‘liq aks ettirilishi kerak. Inson tanasini tasvirlash juda murakkab ob’yektdir. Shu sababli u boshqa narsalarga qaraganda alohida mas’uliyat bilan, har xil texnik imkoniyatlarni qo‘llab ishlanadi. Masalan, yuzdagi va badanning boshqa joylari sirtida farqlar bor. Yuz dag‘alroq bo‘lsa bo‘yin va bel qismlari nozik rang tuslarida ko‘rinadi, shunga yarasha tasvirlanadi. Har bir ishni kompozitsiyadan boshlash va uning yechimini topish uchun bir necha qoralama va tezkor rangli etyudini bajarish maqsadga muvofiqdir. Bu tayyorgarchilik yaratilajak odam gavdasi kompozisiyasini tanlab olishga, nisbatlar va rang yechimlarining to‘g‘ri topilishiga yordam beradi. Detallarni ishlab chiqqandan so‘ng ular umumlashtiriladi, xarakterli joylari belgilanadi va ortiqcha narsalardan voz kechiladi. Bu bosqichda umumiylit, yaxlitlik va uyg‘unlik ustida ish olib boriladi. Odam gavdasini ishlashda detallarning qanday ashyodan ekanligini ifoda etish muhim ahamiyatga ega. Ishni tugatgach, umumiylit rang yechimi saqlanadimi, xarakter topiladimi, gavdaning shakli o‘z aksini topgan-topmaganligi diqqat bilan kuzatiladi.

## MASHHUR TASVIRIY SAN’AT NAMOYONDALARI

### Kamoliddin Behzod (1455-1535)



Hirotlik tarixchi Xondamir o‘zining “Xabab us-siyar” asarida Behzod to‘g‘risida hayratlanib ana shunday yozgan edi. “Rassomlar haqidagi mashhur risolaning muallifi qozi Axmad musavvir haqida!” zehni o‘tkirligi sababli Behzod yetuk musavvir darajasiga yetadiki, rangtasvir paydo bo‘lgandan buyon bu sohada san’at ahli orasida unga teng keladigan yo‘q edi, - deya yozadi. “Kamoliddin Behzodning

zamondosh musavvirlar orasida eng yaxshilaridan, o‘z sohasining yuksak cho‘qqisiga erishgan ulug‘lardan edi” – deydi boshqa bir zamondoshi<sup>9</sup>. Rassom va hattot Do‘stmuhammad Behzodning shuhrati Sharqning buyuk miniatyurachisi bo‘lmish shuxrati naqadar baland bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Behzod qadimgi Xurosonning katta shaharlaridan birida Temuriylar sultanati poytaxti bo‘lgan Hirotda 1455 yil tug‘iladi. Kamoliddin Behzodning hayoti haqida aniq ma’lumotlar yo‘q. Kelib chiqishi aslzodalarga tegishli ekanligi haqidagi manbalarga ko‘ra, Behzod hunarmandlar oilasida tug‘ilgan<sup>10</sup>. Zamondoshlarining asarlarda qayd etilishicha Behzod juda erta ota-onasidan ajralib, yetim qolgan. Hirotning taniqli musavvir va hattoti bo‘lgan Mirak naqqosh Xurosoniy o‘z qaramog‘i va tarbiyasiga oladi. O‘sha vaqtda Mirak naqqosh Xurosonning hukmdori Sulton Husayn (1465-1506) saroyining shoh kutubxonasi boshqaruvchisi kitobdor vazifasida ishladi. Mirak naqqosh Behzodning ustozlaridan biri edi. Uning miniatyura san’ati bo‘yicha ustozlaridan Yana biri buxorolik ustoz Jahongirning shogirdi mashhur rassom pir Sayid Tabriziy bo‘lgan. Uning ustodlari o‘z zamonmasining mashhur rassomlari edi.

Behzodning asarlarida o‘zgacha xususiyatlardan ustozlarning ta’siri kattadir. Bundan tashqari Behzodning shaxs sifatida va dunyoqarashi shakllanishida Alisher Navoiyning o‘rni katta bo‘lgan. Alisher Navoiy vazir, shoir va insonparvar, Sulton Husayn Boyqaro hukmronligi davrida Hirot saroyida o‘ziga xos ijodiy muhit yaratilishiga ta’sir ko‘rsatilgan<sup>11</sup>. Sulton Husayn Boyqaro zamonida hirotda o‘zining rassomga bo‘lgan xurmatini aniq bildirish maqsadida Shoh Ismoil 1522 yilda maxsus buyruq bilan Behzodni Shoh kutubxonasining boshlig‘i kitobdor qilib tayinlaydi.


Keksayganda rassom o‘z vataniga qaytib kelgadi va 1535-36 yillarda Hirotda vafot etadi. Uning portretini Tabrizda yashagan rassom tomonidan ishlangan portreti saqlanib qolgan. Uning qomati bir muncha bukchaygan xolda tasvirlangan. Behzod yaratgan asarlarning aniq bir xisobi yo‘q edi. U yaratgan asarlarda xattoki imzo

<sup>9</sup> Sharq miniatyura maktablari. Maqolalar to‘plami. T.: Nafosat olami, 1989. 9-b.

<sup>10</sup> Sharafiddin Ali Yazdiy. “Zafarnoma”. Mavarounnahr voqealari. 1360–1370. T.: “Kamalak”, 1994. 34-b.

<sup>11</sup> P.Shabaratzov. Miniatyura. T.: “Tafakkur” nashriyoti, 2011. 102-b.

chekilmagan. Behzod o‘z ishlarida Sheroz, Tabriz va Hirot miniatyura maktablarining muvaffaqiyatlari ajoyib ravishda uyg‘unlashtiriladi<sup>12</sup>.




*Navoiy va Behzod (T.Sa'dullayev)*



*Behzod portreti (O.Qozoqov)*

Rassom o‘zining yoshlik yillarida ishlagan ilk asarlaridayoq xatni jiddiy kuzatuvchi mohir san’atkor ekanini ko‘rsatadi. Behzod illyustratsiya qilinadigan qo‘lyozmadan shunaqa syujetlarni tanlab oladiki, bu syujetlar uningcha hayotning turli lavhalarini, mavjudotini doimo harakatda ekanini ko‘rsatish lozim. Shungacha va shundan keyingi davrlarda yaratilgan kompozitsiyalarda Behzod uncha katta bo‘lmagan juda keskin harakat va katta kenglikni o‘zida mujassamlatirgan miniatyuralarni yaratish uchun alohida bir usulni qo‘llaydi, u figuralarni miniatyura ramkalari bilan kesib qo‘yadi va ushbu usul bilan tomoshabinning hayotida harakat davom etayotganining tasavvurini tug‘diradi.

<sup>12</sup> N.Jumaboyev. Kamoliddin Behzod va miniatyura san’ati. International journal of philosophical studies and social sciences ISSN-E: 2181-2047, ISSN-P: 2181-2039. <http://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss/article/view/57/51>



*Al-Xavarnak qal'asining qurilishi (K.Behzod)*      *Iskandar va yetti donishmand (K.Behzod)*



Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asariga ishlangan “Xiva qal’asining qamal qilinishi” nomli asarida aniq detallarni ko‘rish mumkin. Behzodning masjid qurilishi tasvirlanayotgan asarida esa ishlarining borishini keng ko‘lamda ko‘rsatib bergen. Bu miniatyuralarga qarab turib, odam ish juda kizg‘in ketayotganini ko‘rish mumkin. Navoiyning “Farxod va Shirin” dostonida Farxod jasoratini qanchalik kuylangan bo‘lsa, Behzod ham o‘z miniatyuralarida Hirot shahrini obod qilgan nomsiz ustalar va hunarmandlarni muhabbat bilan tasvirlaydi. Sa’diyning shahri O‘rta Sharqda unga teng keladigan shahar yo‘q edi. Hirot shahri me’morchiligiga masjidlarning salobatligi bilan madrasalarni, mehmonxonalar, shifoxonalar, hammomlar va boshqa barcha binolar qurilishidagi aniqlik hamda bezaklar, turli xil naqshlar, koshinlar insoniyatni lol qoldirib kelgan. Bu erda miniatyura va hattotlik asarlarining eng yaxshi namunalari ishlanardi. Sulton Husaynning zamondoshlari Jomiy, Navoiy, Mirxon va Xondamir, husnixati bilan mashhur bo‘lgan hattot Sulton Ali, Mashhadiy Kamoliddin, Kamoliddin Behzod o‘sha paytlarda Hirotning gultojlari edilar. Sulton Husaynning o‘zi ham shoir bo‘lib, ijod ahlining nafis san’atni qadrini biladigan davlat rahbari edi. Buyuk Behzodning shakllanishida Navoiy katta ta’sir ko‘rsatadi. Buyuk ustoz o‘zining mashhur musavvirlariga Amir Nizomiddin Alisher Navoiyning marhamati va g‘amxo‘rligi tufayligina erishdi deydi tarixchi Xondamir. XV asrning 90 yillarida Sulton Husayn Boyqaro Behzodni o‘z kutubxonasiga boshliq

qilib tayinlaydi. Unga Sharqning buyuk yozuvchisi va shoirlarining asarlariga miniatyura chizishni buyurar edi. Sulton Husayn hattot o‘z bog‘ida Behzodga ijodxona qurdirgan. Uning ishidan zavqlanish uchun uni oldiga tez-tez kelib turar edi. Bu bilan dunyoning tashvishlarini birmuncha unutganday bo‘lardi. 1506 yilda Sulton Husayn vafot etadi. O‘limidan bir yildan so‘ng Shayboniyxon Hirotni bosib oladi. Behzod Hirotda qolib o‘z ijodini davom ettirdi. Shayboniyxon ham bilimdon xukmdor bo‘lib rassomga alohida e’tibor beradi va unga o‘z portretini chizishni buyuradi. Rassom chizgan Shayboniyxonning ajoyib portreti o‘sha davrlardan saqlanib qolgan<sup>13</sup>. Shayboniyxon halokatidan so‘ng 1510 yil Hirotni shoh Ismoil bosib oladi. Behzod boshqa bir hukmdor harakatiga o‘tishga majbur bo‘ladi va safaviylar poytaxti Tabrizga boradi. Shoh Ismoil Behzod ijodini yuqori baholaydi. 1514 yilda Childiran yaqinidagi jangda muvaffaqiyatsizlikka uchragan Shoh Ismoil qaytib kelib ularning ahvollarini so‘rattirgan.



*Husayn Boyqaro va Muhabbat Shayboniyxon portretlari (K.Behzod)*

Bo‘ston asarida mashhur Doro cho‘pon miniatyurasi Navoiyning insonparvarlik qoyalari ta’siri ostida yaratilgan. Bu miniatyurada qoyali tog‘lar, ba’zi

<sup>13</sup> X.Usmonov. “Behzod va uning naqqoshlik maktabi”, T.: 1997. 13-b.

joylar butalar bilan qoplangan yam-yashil o‘tloq, cho‘ponlar va otlar yorqin bo‘yoqlar ostida bir-biri bilan uyg‘unlashib ketgan. Bu asarida ham Behzod baytal onasini emayotgan toychoq va qimiz quyayotgan cho‘pon bola kabi haqqoniy va hayotiy lavhalarni tasvirlaydi<sup>14</sup>. Ayniqsa, cho‘pon qomati juda ta’sirchan chiqqan. Muallif yoki bosh qahramon “portreti” ichki kechinmalarini tasvirlovchi sahnalar suhbat mavzusi beriladigan bo‘ldi. Avliyolar, payg‘ambarni tasvirlash mavzulari cheklana bordi. Jang, ov sahnalari vasfiy mavzularga munosabat bir muncha o‘zgaradi. Mustakil peyzaj kompozitsiyalari yo‘qoladi. Ko‘p kishilik bazm manzaralari kam figurali soqiylar bilan almashinadi. Yangi kompozitsion yechimlar, sxemalar paydo bo‘ladi. Keyingi davr qo‘lyozmalarida miniatyuraning O‘rta asr uslubiga pala-partish rioya qilishi va personajlarning tarkibiy harakteristikasiga alohida - alohida urg‘u berish sezilib turiladi.

Harakterli belgi sifatida me’moriy bezak tarzida Boburiylar davri oq marmar inshooatlaridan nisbatan ilgarigi yolg‘iz daraxt yoki peyzash fonini yassi perspektiv qisqartmalarsiz tasvirlovchi Eron, O‘rta Osiyo usulidan foydalanishni ta’kidlash mumkin. Ularda Kashmir etnik tipik zargarlik taqinchoqlarga boy milliy kiyimda tasvirlanib yashil va ko‘kimir ranglar bilan birga noranjiy rang, qizil oltin ranglarning munosib uyg‘unlashuvini ko‘ramiz. Kashmircha uslubda ishlangan O‘rta Osiyo miniatyuralarida uning jihatlari kompozitsion ko‘rilish me’moriy fon ifoda etiladi. Ammo etnik tipik va koloritda muayan o‘zgarishlar mavjud.

Soddalik folklor rasmlar uning tabiiy rivoji va ichki buzilish jarayoni sezilgan klassik miniatyurani qayta qurilish natijasidir. Badiiy bezatilgan Sharq qo‘lyozma kitoblari, kitobat san’ati ham ilmiy-tarixiy, ham badiiy-estetik, ham ma’naviy-ma’rifiy qiymati bilan umumjahon madaniyati xazinasi bilan noyob san’at asarlari sifatida munosib o‘rin egallagan<sup>15</sup>. Ushbu san’atning tarkibiy qismi, Sharq xalqlarining mushtarak badiiy merosi va iftixori bo‘lmish miniatyura san’ati ko‘p yillar mabaynida asosan sharqshunoslar, etnograflar, san’atshunoslar, filologlar va tarixchilarning diqqat markazida bo‘lib keldi.

<sup>14</sup> R.Hasanov. Tasviriy san’at asoslari. T.: 2008. 12-b.

<sup>15</sup> O.Ulmonov. Kamolidin Behzod va uning naqqoshlik maktabi. T.:“Fan” 1977. 93-b.



*Temur va Misr sultoni jangi (K.Behzod)*



*Horun ar-Rashid hammomda (K.Behzod)*

Sharq miniatyura san'atining yetuk tasviriy san'at turi sifatida uning mazmuni, qoyasini badiiy estetik idrok etish jarayonida ularda tasvirlangan ijtimoiy hayot, tarixiy evolyutsiyalar, personajlarning ichki dunyosi, adabiy asar miniatyura mualliflarini aks ettirayotgan voqeа va hodisalarga nisbatan ifodalangan o'zlarining falsafiy mulohazalari, qarashlari, bu voqeа va hodisalardagi etnik xususiyatlarni anglab etish, baho berish va ular asosida o'z munosabatlarini amaliy, tasviriy ko'rinishda ifodalash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu masalaning bir tomoni. Yana bir Muhim masala - o'quvchilarga Sharq miniatyura san'atining jahon madaniyatida tutgan o'rni, Sharq miniatyura maktablari va markazlari, ularda mavjud bo'lган badiiy umumiylig va tafovutlarning sabablari, bu maktablarni zabardast vakillari haqida ma'lumotga ega bo'ladilar.

Shuningdek, Sharq miniatyura san'atining mustaqil san'at turi sifatida shakllanish tarixi, uning san'atning boshqa turlari, xususan adabiyot bilan bog'liqligi, har bir asardagi taraqqiyot darajalarini shu zamoni ijtimoiy - siyosiy va madaniy hayoti bilan bog'liqligi haqida ma'lumotga ega bo'ladilar. Sharq miniatyuri san'atini o'rganish, ayniqsa uning tasviriy usullari aks ettirilgan tasviriy lavxalarda milliy

harakterdagi qarashlarni qo'llash usullaridan bohabar bo'lish bilan bir qatorda ularni turlashtirish printsiplari bilan ham tanish bo'ladilar. Masalan, o'rganiladigan asar personajlarining o'rganish jarayoni to'garak qatnashchilari uchun samarali bo'ladi. Faqat Sharq miniatyuralaridagi qahramonlarni o'rganish jarayoni qator tarbiyaviy – pedagogik masalalarning echimini ochib berish va hal etish imkonini beradi. Jumladan, bu jarayonda o'quvchilar Sharq miniatyura san'atidagi o'ziga xos tasviriy usullardan tashqari tasvirlangan personajlarning liboslarini o'rganish orqali ilmiy va badiiy ahamiyat kasb etuvchi tarixiy sana va voqealardan voqif bo'ladilar, personajlarning tabaqasi, yosh kategoriyasi hamda kasbi-kori to'g'risida tasavvur oladilar. Nihoyat, o'quvchilar o'zlarining ijodiy ishlarida tasvirlashda miniatyura janrida ijod qilayotgan zamondosh musavvirlarning san'at asarlari bilan tarixiy asarlarni qiyosiy o'rganish jarayonida badiiy an'analarni idrok etish va bu an'analar hamohangligini tasviriy va amaliy san'atda davom ettirilishi to'g'risida nazariy va amaliy taassurotlarga ega bo'ladilar. Xuddi shu tamoyil asosida Sharq miniatyura san'atida o'z ifodasini topgan badiiy naqqoshlik va ganchkorlik namunalari, ayniqsa saroylar, qabulxonalar, istiqomat qiladigan joylarning, intererlarini bezashda sharqona me'morchilikdagi an'analarini qo'llanish xususida ma'lumotni boyitadilar.

Sharq miniatyura san'atida Kamoliddin Behzod va uning takrorlanmas badiiy tasviriy mahorat maktabi san'atdagi kamolot namunasi bo'lgan bo'lsa, Temuriylar davri ilm - fani, ayniqsa adabiyotga miniatyura san'ati yuksaklikka erishdi. Umuman ilm - fan va madaniyatning oltin asri bo'lib tarixga kirdi. Miniatyura san'ati asarlarini idrok etishda uning funktsional vazifalari badiiy bezatilgan qo'lyozma asarlarining tarkibiy qismi, ajralmas badiiy – grafik elementi sifatida qarash lozim. Bunday yondashish o'quvchilarning bu durdoni san'atdagi sintezni ilg'ash, ularning hamohangligini ta'minlovchi omillarni aniqlash va tahlil qilish imkonini beradi. Jumladan, so'z bilan tasvir birligidagi badiiy matn va badiiy tasvir sintezi, badiiy bezatilgan qo'lyozma asarlarini yaratilishida turli kasb egalari - hattot, naqqosh, muzahhib va musavvirlarning ijodiy hamkorligining samarali yuksak badiiy kiymatga ega bo'lgan, badiiy jihatdan mukammal bezatilgan qo'lyozma asarlarini yaratilishini asosiy zaminini ekanligi haqida taassurotga ega bo'ladilar. Masalaga shu tariqa

yondashish hattotlik badiiy naqqoshlik kabi miniatyura san'atiga aloqador bo'lgan san'at turlaridan alohida mashg'ulotlar o'tkazish imkonini berildi. Sharq miniatyura san'atini o'rganishga qaratilgan va unda yuqorida sanab o'tilgan vazifalarni hal etish quyidagi asosiy pedagogik muammolarni echish bilan bog'liq holda olib boriladi. Chunonchi, san'at vositasida o'quvchilar ongiga Sharqona falsafiy dunyoqarash, axloq me'yorlarini singdirish, miniatyura san'atining rivojlanish bosqichlarini o'rganish orqali xalqimizning madaniy merosini, badiiy-milliy an'analarini o'zlashtirish, Sharqona badiiy - tasviriy kamolot borasidagi bilim va malakalarini oshirish yo'li bilan o'quvchilarning badiiy tafakkurini rivojlantirish imkonini yaratishi zarur.

**Tansiqboyev O'rol Tansiqboyevich**  
(1904-1974)

O'rol Tansiqboyev xalq rassomi, badiiy akademianing chinakam a'zosi, O'zbekiston rassomlar uyushmasining raisi (1956-1959). Toshkentda tug'ilgan. Yetti yillik maktabni tugatib, zavodga ishga kiradi. O'rol yigirma yoshidan rasm chizishni boshlaydi.

O'rol Tansiqboyevning birinchi suratlari u ishlagan zavodning klubida namoyish etilgan. 1924 yil "Turkiston haqiqati" gazetasida "O'rol Tansiqboyev ismli ishchi-rassom haqida" qayd paydo bo'ladi. Toshknedagi san'at muzeyi qoshidagi birinchi o'qituvchisi (1923-1927 yillar) N.V.Rozanov bo'lgan. Ta'sirchan mahorat, impressionistik hissiyotlar yosh Tansiqboyevning "O'zbek portreti" nomli ishida namoyon bo'ldi (1927, Sharq muzeyi, Moskva). 1928-1929 yillar O'rol Tansiqboyev Penza rassomchilik oliygohida I.S.Goryushkin-Sorokopudov qo'lida tahsil oladi.





*Sirdaryo (O'.Tansiqboyev)*

1929 yil Moskva shahriga tashrif buyurib, rassom muzeylar bilan tanishadi, unda chuqur taassurotlar qoldirgan zamonaviy g‘arbiy-ovrupa san’atini ko‘radi. Shu vaqt dan e’tiboran, betinim izlanishlar, mustaqil yo‘nalish tanlovi sari intilishlar boshlanadi. Tansiqboyev – ovrupa madaniyatiga yuzlanib, ovrupacha avangard usullarini egallagan, o‘zgacha dunyoqarash ila yorqin shaxsiyati shakllantirgan chinakam millatparvarchilik ruhidagi ilk rassom. O‘rol Tansiqboyevning mahorat tajribasi u yashagan va ijod qilgan davrning badiiy mohiyatida tushuniladi. O‘sha yillarda zamonaviy o‘zbek rassomchilik san’ati shakllanish bo‘sag‘asida turgan va u ilk qaldirg‘och bo‘lgan. Ushbu jarayonlarda P.Benkov, A.Volkov, M.Kurzin, N.Kashina, A.Nikolayev, B.Ufimtsev kabi rassomlar alohida o‘ringa ega, zotan, ular o‘z ijodi orqali milliy maktabning yuqori darajasini aniqlab berishgan.



*Paxtani sug'orish (O'.Tansiqboyev)*

1934 yil Moskva hamda Filadelfiyada bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston san’at asarlari ko‘rgazmasidan so‘ng uni “o‘zbek rangshunosligining cho‘qqisi”, deb atay boshlashgan. Yillar o‘tgani sari uning ijodida voqelik yo‘nalishidagi manzara tarsviriga mayli kuchliroq namoyon eta boshlaydi. U inson va tabiat g‘oyasini o‘z asarlari orqali yetkazadi. San’atshunoslarning ta’kidlashicha, O‘rol Tansiqboyev o‘zining ijodiy izlanishlari tufayli, o‘zbek manzarashunoslik san’atini butunlay o‘zgartirgan, plener etyudi doirasidan chetlashib, manzara-kartinasini yaratgan.

XX mobaynida u milliy manzarashunoslik rivojini belgilab bergen, yangi asrda esa uning retrospektiv yubileyi – o‘zbek milliy tasviriy san’atini zamonaviylik bilan bog‘lovchi, izchillikni tiklovi muhim hodisalardan biri bo‘ldi. Yillar o‘tgani sayin, uning asarlari tomoshabinlarga katta estetik zavq hadya etishi bilan birga, o‘z davriga xos san’atga qo‘ygan qadami bilan ham o‘lchanib, ustaning tarixiy ahamiyatida yangi ma’noga ega bo‘ladi.

O’.Tansiqboyev ijodining erta pallalaridagi ijod namunalaridan uning atrof-muhitga bo‘lgan muhabbatini payqash mumkin, shu bilan birga, o‘tmishga nisbatan hech qanday zavq, hech bir uslubchilik sezilmaydi. 30-yillardagi ijodida impressionistik ishlarni ko‘rish mumkin, masalan, “Plenerdaggi avtoportret” (1935) va voqe’iy portret - A.Podkovirovning portreti (1935), shuningdek, neoprimitivizm

ruhidagi “O‘zbek. Samarqand” (1934). 30-yillarning ikkinchi yarimidagi “Birchmulla”, “Bog‘iston”, “Bahoriy ishlar” orqali rassomning keyingi ijodi peyzaj janri yo‘lanishi bo‘yicha ketishi belgilanadi.



*Issiqko 'lda kechki payt (O‘.Tansiqboyev)*

O‘.Tansiqboyevning 20-yillar boshi, 30-yillar oxiridagi ishlarini sinchkovlik bilan o‘rganish orqali undagi yashirin intilishlarni payqash mumkin. N.Rozanov studiyasini bitirib, Penza badiiy oliygohida ikki yilgina tahsil olib, rassom talabalik pallalarida ko‘p ushlanib qolmay, hadiksirab o‘z yo‘nalishini tanlay oldi. Ko‘plab omillar sabab Tansiqboyev avangard yo‘nalishi tomon shiddat ila rivojlandi. Bunga Moskva muzeyidagi ko‘rgan zamonaviy ovrupa tasviriy san’ati taassurotlari, avangard usullarini Sharqning an’anaviy bo‘laklari bilan uyg‘unlashtirish zamin bo‘lib, u uchun yangi mahorat maktabi bo‘lib xizmat qildi. Munozara va ko‘rgazmalar muhiti, Tansiqboyevdan yigirma yoshlar katta bo‘lgan va o‘zining ijodkor sifatida aniq yo‘nalishiga ega bo‘lgan A.Volkov, M.Kurzin, A.Nikolayev, A.Podkovirov kabi rassomlar bilan yelkama-yelka ishlash ichki ehtiyojlar sari dadil izlanishlar, erkin ijod imkoniyatlarini ochdi.

“A.Toshkenboyevning portreti”dan boshlab, 30-yillar o‘rtalarigacha Tansiqboyev XIX - XX asrlargacha bo‘lgan ovrupacha tasviriy san’atning asosiy

yo‘nalishlarini jadal bosib o‘tdi. Har bir zamonaviy rassom uchun muhim qadam bo‘lgan impressionizm yo‘nalishini O‘.Tansiqboyev o‘zining A.Toshkentoyev portretida namoyon etdi. U havoni, ta’sirchan muhitning yorqin ranglarini yetkazib berishni o‘rgandi, tabiat bilan uzviy bog‘liqlikka ega bo‘ldi. Divizionizm bilan qiziqib (“Karvon”), Sezannga va kubizmga yaqin bo‘lgan ishlarida (“Pushti manzarada yigitcha shakli”, “Xojikent”) va rasmlarida (“Hovuz bo‘yida”, “Eski shahar burchagi”) postimpressionizm tasviriy san’atida ranglarining kuchaytirish o‘rni (“Qizil kuz”) va fovizmda (“Bog‘da peshin”) muvaffaqiyatli rivojlandi.

O‘rol Tansiqboyev talabalik kezlaridayoq, tasviriy san’at tartiblari, ularning rivojlantirish yo‘llari haqida o‘y surgan. 1927 yil ikkita badiiy mohiyatni namoyish etgan portret chizgan: biri (“A.Toshkentboyev portreti”) - impressionizmga va boshqasi (“O‘zbek portreti”) - sharqona bezaklar, nishonlar bilan to‘ldirilgan.

Tansiqboyevning mukammal rivojlanish yo‘lida uning o‘sha yillar qilgan ijod namunalari, 1951 yil - “Ona yer” va “Issiq ko‘l oqshomi” kabilar tasdiqlaydi. Ularda, go‘yo, ikki mohiyat kurashi ketayotganday - o‘sha darvlarga xos illyustrativ intilishlar, ortiqcha bo‘laklar va, umuman, tabiat timsolining yuzaki ifodasi, shuningdek, chuqur falsafiy-she’riy kechinmalar sari izlanish.

“Toxiatosh” va “Sirdaryo” kabi manzaralari diqqatga sazovor. O‘rol Tansiqboyev o‘z ijodining yangi bo‘sag‘asida turib, o‘zbek manzarashunoslik tasviriy san’atiga butunlay o‘zgartirish olib kirishi lozim bo‘lgan.

Eng yaxshi manzaralari, ayniqsa “Qayraqum GE Sida tong”da umuminsoniy izlanishlar namoyon bo‘ladi.



*Qayroqqum GESida tong (O'.Tansiqboyev)*

60-70 yillar rassom monumental birikkan, jadal ranglar uyg‘unligiga ega erkinroq uslubdagi tasvir talqinini yaratishga muvaffaq bo‘ladi, unda go‘yoki, 30-yillar ruhiy izlanishlari gavdalanganday. “Angren-Qo‘qon tog‘ yo‘li”, “Pomirdagi Qorako‘l”, “Belesda. Qirg‘iziston”, “Oloy vodiysi”, “Oqshomda Panj” polotnolarida tabiat orqali hissiyotlar o‘zlashtiriladi, xuddi erkinlikka qaytadan yuborilgan keng maktub kabi.

O‘rol Tansiqboyev O‘zbekistondagi boshqa san’at asoschilar kabi mushkul, og‘ir yillarda, dunyoda urush va boshqa dramatik hodisalar yuz bergan vaqtarda hayot kechirgan. Rassom ularni chetlab o‘tmay, ularda san’atning go‘zal sahifalariga bo‘lgan ishonchni uqtirgan. O‘z davrining og‘ir masalalariga u munosib tarzda javob qaytarib, rassomning eng yaxshi asarlari esa – milliy madaniyat tarixidagi atoqli ustanning mahoratidan dalolatdir.

## Ahmarov Chingiz Gabdurahmonovich

(1912-1995)



Chingiz Ahmarov – yirik mahobat uslubidagi rassom, portretchi-rassom, miniatyurachi-rassom, professor, yuzlab o‘quvchiga saboq bergen pedagog. O‘zbekiston va Tatariston xalq rassomi, Stalin mukofoti laureati. San’atshunoslik olamida “Ahmarov maktabi” nomini qoldirgan inson va yirik rassom.

Chingiz Ahmarov 1912 yil 18 avgust kuni Troitsk (Janubiy Ural, Rossiya)da tug‘ilgan. Ahmarovlar oilasida 11 nafar farzand bo‘lgan, ular bilan ham onasi, ham otasi tarafdan buvisi va dodasi yashagan<sup>16</sup>.


Ahmarovlar oilasida yuqori madaniyat 19 asrdan hukm surgan, bobosi Miftoxitdindan ularga katta kutubxona meros qolib, unda turk, tatar va ozarbayjon tillaridagi qo‘lyozma va toshbosma kitoblar va jurnallar ko‘p bo‘lgan. Chingiz bolaligidan “Mulla Nasriddin” nomli jurnalni yaxshi eslaydi, zero, u yerdagi suratlarni ko‘chirib chizgan, uning opalari she’r mutolaasi bilan qiziqishgan, pianino chalishgan, uyda spektakllar qo‘yib, adabiy kechalar uyshtirib, uyga mehmonlar chaqirishgan.

Chingiz to‘rt yoshidan bolalar bog‘chasiga, yetti yoshidan esa katta akalari o‘qigan maktabga boradi. Olti yoshida Chingizga Gaufning “Kichkina Muk” kitobini sovg‘a qilishadi, kitob Dmitriy Mitroxin suratlari boyitilgan edi. Mitroxinning suratlari bolakayning taqdirini belgilab berdi - albatta, rassom bo‘lishni qalbiga tugib qo‘ydi. 1927 yil boshlang‘ich maktabdan so‘ng o‘n besh yasharli Chinshizni perlak badiiy bilim yurtiga takliy qilishadi. Perm bilim yurtidagi imtihonda Chingiz A.Krilovning “Qarg‘a va tulki” masalidagi suratlarni chizadi va talabalikka qabul qilinadi. Shu yilning o‘zida Chingizning otasiga o‘g‘lining sog‘lig‘i tufayli yashash iqlimini o‘zgartirishni maslahat berishadi va Chingizlar oilasi O‘zbekistonga ko‘chib keladi – avvaliga, Qarshi, so‘ngra Samarqandga.

<sup>16</sup> R.Hasanov. Tasviriy san’at asoslari. O‘quv qo‘llanma. T.: “G‘afur G‘ulom”, 2009



*Xorazmcha raqs* (Ch.Axmarov)



*Yosh Navoiy* (Ch.Axmarov)

1931 yil Chingiz Axmarov Perm rassomchilik bilim yurtini tamomlaydi, uning diplom ishi shahar drama teatridagi F.Shillerning “Makr va sevgi” fojiaviy asariga chizilgan suratlari bo‘ldi. Mazkur asar teatrning badiiy hayotida sezilarli voqeaga aylandi va yosh rassomni turli ishlarga taklif qila boshlashdi.

Diplomni qo‘lga olib, Chingiz oilasiga – sevimli Samarqandiga, uni doim chorlagan Temur maqbarasi, Go‘ri Amirga qaytadi. Axmarovning qaytishiga Samarqandda badiiy texnikum ochilib, unga Pavel Benkov va Zinaida Kovalevskayalar rahbarlik qilishadi, akademik bilimga ega moskvalik va peterburglik ustozlar dars berishgan. Yoshgina Chingiz ham tez orada ishga kiradi, u mazkur maktabda chizmachilik va rassomchilikdan dars beradi.

1934 yilning mayida maktabdagi darslar yakunlanishi bilan Toshkentga keladi va poytaxtdagi hamkasblari bilan tanishadi. O‘z ishlarini Iskandar akaga ko‘rsatib, Chingiz kutilmaganda G‘ayratiy, Shokira Sulaymon kabi yozuvchilar va ikkita xalq ertaklari kitoblarini bezagi uchun buyurtma oladi. Nashriyotdagi faoliyati uni Abdulla Qahhor, Zilfiya, Parda Tursun, G‘ofur G‘ulom kabi yozuvchilar, dramaturg Umar Ismoilov, shoir Maqsud Shayhzodalar bilan yaqinlashtirdi. Nashriyotdagi gazeta va jurnallarda ishlab, u shuningdek, Usto Mo‘min, Boris Jukov, O‘rol Tansiqboyev, Aleksandr Volkov kabi rassomlar bilan ham yaqinlashadi. U vaqtlar Chingizning

yoshi bor-yo‘g‘i 22 da edi, bu kabi o‘qimishli va qiziqarli insonlar bilan suhbat uning dididagi madaniyat va dunyoqarash kabi qirralarni shakllantiradi.

1935 yil u Leningraddagi Rassomchilik institutiga o‘qishga kirishga qat’iy qaror qiladi va u yerga o‘z hujjatlari va tanlov ishlarini yuboradi. Ammo javobni kutib qoladi va uning o‘zi Neva daryosining qirg‘oqlari tomon yo‘l oladi. Biroq Leningradda umidlari puchga chiqadi: uni o‘qishga qabul qilishmaydi - tanlov juda kuchli o‘tadi va har bir ishtirokchi orqasida kuchli rassomlar turadi. Bu zarba juda shavfqatsiz bo‘ldi, ammo Chingiz bo‘sh kelmaydi. U o‘zining rad etilgan ishlari bilan Moskvaga jo‘naydi va Lev Bruni hamda Vladimir Favarskiy kabi rassomlarga yuzlanadi, zero Toshkentda va Samarqandda ular haqida ko‘p eshitgandi. Chingizni o‘qishga iltifot bilan qabul qilishadi, uning hujjatlarini ko‘rib, “Izoinstitut”ga borishini maslahat berishadi.



*Nodirabegim (Ch.Axmarov)*



*Ona va bola (Ch.Axmarov)*

1942 yil Chingiz Axmarov institutni yakunlaydi, institutni nomi Surikov nomiga o‘zgartirilgan edi.

1944-1947 yillar Axmarov A.Navoiy nomidagi opera va balet teatrida qo‘lyozmalar yaratadi. Ulkan va mislsiz ishi uchun Chingiz Axmarov 1947 yil 1-darajali Stalin mukofoti bilan taqdirlanadi.

1955 yil Axmarov kutilmaganda u uchun muhim bo‘lmish mualliflik ishi uchun buyurtma qabul qiladi – Qozondagi opera va balet teatrining intererini shaxsan

bezatish. Ham hajman, ham ijodiy g‘oyasi bo‘yicha ulkan bo‘lmish ish uchun Axmarov ikki yil vaqt sarflaydi.

1961 yil Axmarovning taqdiri o‘zgaradi. U Toshkentga qaytadi. U Ulug‘bek muzeyi uchun bir qator monumental-dekorativ ishlar qiladi, Beruniy nomidagi sharqshunoslik institut ayvoni uchun qo‘lyozmalar chizadi. Toshkentdagi Navoiy muzeyining binosini, Samarqanddagi “Yulduz” restoranining banketlar zalini bezaydi. Sochidagi “O‘zbekiston” sanatoriysini, Toshkent metrosidagi “Alisher Navoiy” bekatini bezaydi. Hattoki, Krasnoyarsk shahridagi kafeni ham bezashga ulguradi – sibirliklar uchun O‘zbekistondan hadya. Ushbu yillar u Toshkent rassomchilik institutida dars berishga ham luguradi, 1964 yil esa kitob grafikasiga qaytib, Sharof Rashidovning “Kashmir afsonasi”ni bezashga ulguradi. Axmaroga shon-shuhrat, faxr va hurmat keladi. 1964 yil u O‘zbekiston xalq rassomi bo‘ladi, 1967 yil esa Hamza nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo‘ladi. O‘zbekistonning yangi hukumati uni “Vatan oldidagi xizmatlari uchun” oliv mukofoti bilan taqdirlaydi. 2007 yil Chingiz Axmarov tavalludining 95-yilligining hukumatimiz tomonidan nishonlanishi hamda rassom xotiralari kitobining nashr etilishi prezidentimizning rassom va uning ijodiga bo‘lgan sevgi va hurmatdan dalolatdir.

### **Nabiyev Malik Nabiyevich** (1916-2008)



Malik Nabiyev O‘zbekiston xalq rassomi, akademik, professor, qator davlat mukofotlari laureati, Buyuk ajdodlarimiz va zamondoshlarimizning mukammal obrazlarini yaratgan.

Malik Nabiyev 1916 yilda Toshkentda tug‘ilgan. 1937 yili P.Benkov nomidagi Respublika rassomlik bilim yurtida o‘qituvchilik faoliyatini boshlagan. 1958 yildan umrining oxiriga qadar Nabiyev Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universitetida, iqtidorli yoshlarning bir nechta avlodini tasviriy san’at sohasi sir-asrorlari bilan yaqindan tanishtirgan. Rassomning buyuk tarixiy shaxslar va fidoiy zamondoshlar aks ettirilgan asarlari keng jamoatchilik e’tirofiga sazovor bo‘lgan. Ular orasida

Nabiyevning “Spitamen”, “Beruniy portreti”, “Tamara Xonim”, “Cho‘pon”, “Shifokor Mahmudova portreti”, “Quruvchi” kabi kartinalari bor<sup>17</sup>.



*Beruniy portreti (M.Nabiyev)*



*Al Xorazmiy portreti (M.Nabiyev)*

Malik Nabiyev ijodi, ayniqsa, Mustaqillik yillarida yanada rivojlandi. Rassom o‘zbek xalqining buyuk o‘g‘lonlari – Bobur, Fitrat, Usmon Nosir singarilarning o‘ziga xos suvratlarini yaratdi. Ayniqsa, 1994 yil buyuk bobakalonimiz Sohibqiron Amir Temurning Nabiyev tomonidan yaratilgan portreti nafaqat tasviriy san’at, balki mamlakatimiz madaniy hayoti rivojida katta hodisa bo‘ldi.

Malik Nabiyev olim va madaniyat arboblari portretlarini yaratib, asosan tarixiy janrda ijod qilgan. Ko‘rgazmada Amir Temur o‘smirlik davridan boshlab keksalik onlarigacha hayotining turli pallalarida yaratilgan ko‘p obrazli tarixiy kompozitsiyalar taqdim etilgan. Rassom mo‘yqalamiga mansub Amir Temur portretlaridan biri buyuk sarkarda va davlat arbobi obrazi namunasi, deb tan olingan. Ushbu muvaffaqiyat rassomga ilhom bag‘ishlab, Amir Temur va u yashagan davrga oid tarixiy hujjat va kitoblar, arxiv materiallarini sinchkovlik bilan o‘rganishga undagan.

Tasviriy san’atda tarixiy shaxslar obrazini Malik Nabiyev ijodisiz to‘liq tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ayniqsa, sohibqiron Amir Temur obraziga rassomning murojaat qilishi sabablari xususida to‘xtalish joizdir. Taqdir taqozosi bilan 1941 yil iyun oyida Amir Temur dahmasi, so‘ngra Mirzo Ulug‘bek va Bibixonim qabrlari

<sup>17</sup> R.Hasanov. Tasviriy san’at asoslari. O‘quv qo‘llanma. T.: “G‘afur G‘ulom”, 2009

ochilganligi ma'lum. Bir oz vaqt o'tgandan so'ng qabrdan topilgan ashylar, jumladan sohibqironning bosh suyagi ham Toshkentdagi O'zbekiston xalqlari tarixiy muzeyiga olib kelingan. Bu haqda musavvir hikoya qiladi: "M.Gerasimov muzey binosida jahongirniig bosh suyagi asosida haykal portret ishlashni boshlab yuboradi. Men bu jarayonni o'z ko'zim bilan ko'rganman. Nachora, zamon taqozosi ekan. Albatta, bu voqeа rostdan ham dahshat! Sohibqironning arvohi chirqirab, ruhi azob chekkan bo'lishi tabiiy... O'sha 1941 yildan beri ulug' sarkarda siymosini yaratish niyati meni bir daqiqa ham tark etgani yo'q". Ellik yildan ortiq vaqt ichida Amir Temur obrazini har tomonlama o'rganish uchun olib borgan tadqiqotlari, izlanishlari haqida so'zlab berishlarini so'rashganda rassom shunday fikrlarni bayon qilgan edi: "Shu davr ichida Amir Temur haqida ko'plab asarlar bilan tanishdim. Mavjud miniatyuralarni, qayerda bo'lmasin, imkoniyat darajasida qidirib topdim. Men Hindistonning Kalkutta, Bombay shaharlaridagi muzeylarda, Eronning Tehron, Isfahon, Turkiyaning Istanbul, Ko'nyo, Izmir va boshqa shaharlarida, Angliyaning mashhur Britaniya muzeyida, Fransiya, Ispaniya kabi mamlakatlar muzeylarida saqlanayotgan miniatyuralarning asl nusxalarini ko'rishga muvaffaq bo'ldim. Ularda Amir Temur turlicha tasvirlangan. Hindistonda shakllangan Bobur va boburiylar davri miniatyura maktabi, Behzod (Hirot) miniatyura maktabi vakillari chizgan Amir Temur qiyofasi bir-biridan tubdan farq qiladi. Istanbul muzeyidan joy olgan Temur portreti ham butunlay boshqacha<sup>18</sup>... Xullas, Amir Temur siymosini yaratish uchun bir emas, bir necha miniatyura maktabini o'rganib chiqdim. Tarixiy asarlarni yaratishda avvalo men bobolar ruhidan madad so'rayman, ana shu narsa menga doimo dalda berib turadi...". Haqiqatdan ham rassom bu portret asarini yaratish borasida astoydil izlanishlar olib borgan, yutuqqa yuksak mahorati, mo'yqalamining kuchi tufayli erishgan.

San'at ixlosmandlari a'tiborini o'ziga jalb qilgan Amir Tamur portratida Sohibqiron sarkarda qiyofasida gavdalantirilgan. Boshiga oltin toj kiygan Tamurning nigohi bir nuqtaga qaratilgan. Uning jiddiy hayol og'ushida akanligi chap qovog'ini


---

<sup>18</sup> <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/ozbekiston-xalq-rassomi-malik-nabiyev-100-yoshda.html>

bir oz ko‘tarilib, qoshi tapaga chimirilganidan sazilib turadi, ulug‘vor fikr bilan bandligidan dalolat baradi. Yuz qiyofasi asosan bug‘doy rang tuslar orqali tasvirlangan. Pashona, yuz qismida paydo bo‘lgan chiziqlar, shuningdak, burun, lab, qulqoq, soqol, mo‘ylov kabi joylaridagi holatlar Tamurning yoshi bir oz o‘tganligini ko‘rsatsa-da, uning tatik va baquvvatliligi saqlanganligi yaqqol sazilib turibdi. Ayniqsa bu holat yuzda ko‘zga tashlanayotgai pishiqlik, chayirlikni tasvirlanishida yanada aniqroq ko‘rinadi. Jiddiy fikr va xayol bilan bandligi asa sohibqironni yanada salobatli qilib ko‘rsatadi. Yalkador, qo‘llari asa bamaylixotir qilichga tayangan holda tasvirlangan. Portratda qo‘l barmoqlari shunday xaraktarli tasvirlanganki, bu sohibqiron Tamurning mashaqqatli jangu jadallardan mardonavor o‘tganini yana bir bor tasdiqlab turibdi. Sharqona bazatilgan shoh saroyining bir bo‘lagi, darazadan Samarqand shahrining manzarasi ko‘rinadi. Davordagi fonda naqshin bazaklar, sohibqiron o‘tirgan sultanat kursisining badiiy boyligi, shuningdak Amir Tamur agnidagi liboslarning o‘ziga xos qimmatbaho ko‘rinishiga aga bo‘lishi tomoshabinga zavq ulashadi. Malik Nabiyyav buyuk inson Amir Tamur obrazini tasvirlash borasida katta muvaffaqiyatni qo‘lga kiritdi. Tamurni ilm, san’at ahillariga homiylik qilgan ma’rifat homiysi akanini ham ifodalay oldi. Xullas, Malik Nabiyyav sharqona xaraktarga aga bo‘lgan Tamurni uzoq va mashaqqatli jangu jadallardan so‘nggi holatdagi obrazini tasvirlashga arishgan.

Xalq ozodligi kurashchisi Spitaman, hamda, buyuk olim va mutafakkir Abu Rayhon Baruniy portrtlari ham, rassomning ang yaxshi asarlari qatoridan o‘rin olgan.

Nabiyyav boshqa rassomlarning buyuk asarlari saqlanadigan ma’moriy obidalar, muzay va ko‘rgazma zallarini o‘z ko‘zi bilan ko‘rish uchun Yavropa, Osiyo, Amerika mintaqalarining 40 dan ortiq mamlakatlarida bo‘lgan. Jahon san’atining turli yo‘nalishlarini puxta o‘zlashtirganiga qaramay, rassom raalizm an’analariga sodiq qolgan. Akspozitsiyadan o‘rin olgan Hindiston, Kuba, Shri-Lanka, Indonaziyaga sayohatlardan olgan taassurotlari asosida yaratilgan atyudlar va tugal asarlar shundan dalolat baradi.



*Bobur portreti (M.Nabiiev)*



*Amir Temur portreti (M.Nabiiev)*


Buyuk ajdodlarimiz va zamondoshlarimizning mukammal obrazlarini yarata olgan Malik Nabiiev “Buyuk xizmatlari uchun” davlat ordeni bilan taqdirlangan. 2011 yil 17 fevral kuni Malik Nabiiev tavalludining 95-yilligiga bag‘ishlangan xotira kechasi o‘tkazildi. Shuningdek, uning o‘g‘li Xusan Nabiiev va nabirasi Anvarning “Avlodlar” deb nomlangan ko‘rganzmalari ham ushbu mavzu bilan hamohangdir.

**Axmedov Rahim Axmedovich**  
(1921-2008)

O‘zbekiston xalq rassomi, akademik Rahim Axmedov Toshkent shahrida tavallud topdi. Toshkent badiiy rassomlik bilim yurtida 1937-41-yillarda Xikmat Raxmonov va Malik Nabiyevlar qo‘lida o‘qidi. Urush yillari Shimoliy Kavkaz frontida xarbiy xizmatda bo‘lib targ‘ibiy ishlarda qatnashib portretlar ishladi. Urush tugab Toshkentga qaytgach Rassomlik bilim yurtida o‘qishini davom ettirib shu yerdan 1947 yili Leningradga (hozirgi Peterburgga) I.Repin nomidagi Rassomlik, haykaltaroshlik va me’morlik institutiga o‘qishga yuborildi. I.A.Serebryanniy, A.A.Milnikov, Yu.N.Neprintsev kabi yetuk rus rassomlari qo‘lida o‘qib “Xalq xofizi” nomli diplom ishi bilan 1953 yili institutni tugatdi.



Toshkentga qaytgan rassom o‘z ijodini birodarlik an’analariga sodiq xolda asarlar yaratish bilan boshladi. Ilk asarlarida akademiya tamoyillar yetakchi o‘rinni egallaydi. Ularda his tuyg‘ulardan ko‘ra aql, mantiqiy fikr yuritishga moyillik kuchlilik qiladi, hikoyanavislik uning asarlarining ko‘p so‘zliligida ko‘zga tashlanadi.




*Peshin (R.Axmedov)*

Rahim Axmedov, asosan, portret janrida ijod qiladi. Rassom yaratgan portretlarda zamondoshlarimiz – talaba, artist, rassom, cho‘pon, paxtakorlar — mehnatsevar oddiy kishilarning tipik obrazini ko‘ramiz. Rahim Axmedovning ilk asarlari bo‘lmish “Cho‘pon yigit”, “Xalq sozandasi”, “Surxondaryolik qiz” kabi suratlari uni mohir suratkash va kolorit ustasi bo‘lib yetishganini ko‘rsatadi. Rassom o‘z asarlarida qahramonlarning ma’naviy qyoiqasini, ruhini, his-tuyg‘ularini ta’sirli qilib ifodalagan<sup>19</sup>. Bular: Ona o‘ylari”, “Bahor” va boshqalardir. Rahim Axmedov badiiy jihatdan mukammal janrli suratlar ham yaratgan. “Birinchi maosh”, “Tushki dam olish”, “Onalik – tong”, “Qo‘sish” kabi polotnolari nihoyatda jonli, hayotiy va haqqoniyligi chiqqan. Rahim Axmedov yaratgan ayollar obrazlari, ayniqsa, jozibali va maftunkordir. Rassomning bu mavzudagi suratlari nazm ruhi bilan sug‘orilgan, nozik his-tuyg‘ularga boy.

<sup>19</sup> <https://fayllar.org/ii-bob-ozbekiston-xalq-rassomi-rahim-ahmedov-hayoti ва ijodi-i.html?page=2>



*Onalik – tong (R.Axmedov)*



*Kashtachi (R.Axmedov)*

“Onalik – tong” (1963) suratida rassom zamonaviy o‘zbek ayolining tipik obrazini gavdalantirdi. Azaldan san’atkorlarni maftun etib kelgan mavzuni R.Axmedov sodda va bir vaqtda tantanali ifodalagan. Suratning kompozitsiyasi oddiy, koloriti jozibali va nafis. Suratning umumiyligi nozik pistoqi-yashil rangi, tog‘ cho‘qqilari va adirlarning yashiltob binafsha ranglari hamda daraxtlarning ko‘kish tuslari bilan uyg‘unlashib ketgan. O‘zbek ayollariga xos holatda o‘tirgan onaning egnidagi sariq libosi uning bug‘doyrang badaniga uyg‘unlashtirib tasvirlangan. Xamza mukofoti laureati, Toshkent teatr-rassomlik institutining akademigi Rahim Axmedov respublika tasviriy san’atining atoqli namoyandalaridan biridir. Uning asarlari xalqaro ko‘rgazmalarda namoyish qilingan, mamlakatimizning san’at muzeylari va galereyalarida saqlanmoqda. Hech bir sahna asarini bezaklarsiz, dekoratsiyasiz tasvvur qilib bo‘lmaydi. Ular spektakldagi voqealarning tabiiy, ishonarli va hayotiy chiqishiga yordam beradi. Bunda teatr rassomlarining xizmati katta. Respublikamizda ham bir qancha mahoratlari mo‘yqalam ustalari shu borada mehnat qilmoqdalar. Ular yaratgan sahna bezaklari asosida tomoshabinlarga tuhfa etilgan o‘nlab spektakllar o‘zbek madaniyatiga sezilarli hissa bo‘lib qo‘shilmoqda. Akademik R.Axmedov o‘z portretlarida epik kenglik va teranlikka erishadi. Uning qahramonlari oddiy insonlar, qishloq kishilari bo‘lib, aynan, ularda musavvir donishmandlikni, ma’naviy poklikni, yuksak axloqiy qoidalarni gavdalantiradi

(“Jizzaxlik ayol”, 1992; “Nigina” 1993). Rahim Axmedov ijodining asosini tashkil qilgan XX asrning ikkinchi yarmida o‘zbek portret san’ati yuksalib rivojlandi. Portret sohasida Lutfulla Abdullayev, Abdulhaq Abdullayev, Rahim Axmedov, Malik Nabiyevlar samarali ijod qilib kelganlar. Lutfulla Abdullayevning “Mulla To‘ychi Toshmuhamedov”, “Y.Axunboboyev” portretlari realistik an’analarda mohirona tasvirlangan. Ushbu O‘zbek portretchilik san’atining mohir ustalari o‘z ijodlarida Yevropa va Rus rangtasvir san’atining ilg‘or namoyondalari asarlaridan ilhomlandilar va ularning yaratgan maktab an’analari asosida asarlar yaratdilar. Shuning uchun ham Rus portret san’ati haqida qisqacha to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz.



*Cho'pon yigit (R.Axmedov)*



*Ona o'yłari (R.Axmedov)*

“Cho‘pon yigit portreti”da tabiat bilan kurashib og‘ir mehnatni yoshlikdayoq yelkasiga olgan 40-yillar avlodini taqdirini tasvirlagan. Cho‘pon yigit qiyofasida sinchiklab qarayotgan nigohi gavda kompozitsiyasiga bog‘lanib ketgan, tayoqqa suyalgan, qabargan qo‘llari va suyangan gavdasi jazirama oftobda kuygan dala o‘tlari, haroratda qizigan tabiat manzarasi fonida – issiq ranglarda o‘z yechimini topgan. Portret kompozitsiyasini asosiy mavzuni bu inson obrazidir. Boshiga kattalarga taqlid qilib o‘ralgan qizil ro‘molcha, og‘ir mehnatni anglagan, pushti ko‘ylakdagи o‘siprin bola tasvirlangan. Bu ajib asar hozirda O‘zbekiston davlat san’at muzeyida avaylab saqlanmoqda. “1956 yili Rahim Axmedov Burchmulla qishlog‘ida, ikki o‘g‘li hamda turmush o‘rtog‘i frontdan qaytmagan, mehnatda qaddi bukilmagan


mardona keksa ayol portreti, “Ona o‘ylari” asarini yaratdi. Men shu portret yaratilishini shohidi bo‘lganman. Chunki rassomchilik instituti talabasi sifatida Rahim aka rahbarligida dala amaliyoti – plenerni o‘tar edik, deb eslaydi taniqli rassom. Ayol ko‘pincha qariyalarga xos o‘tirar, hayolga cho‘mar edi. Ayol kechinmalari, onadan yosh yetim qolgan Rahim otaning bag‘rini to‘lqinlantirib, unga mehr, chuqur hurmat uyg‘otdi”. “Ona o‘ylari” portreti kompozitsiyasida, ayol qiyofasi (qomati) biroz oldinga chiqqan. Yong‘oq daraxti yonida yostiqqa suyanib tizzalari ustiga qo‘l panjalarini saranjom qo‘yib, hayolga cho‘mgan ayol qiyofasi, kompozitsiya jihatidan klassik mavqega ega, juda muvaffaqiyatli topilgan. Ayolni yuzidagi chuqur ruhiy holatni, uning g‘amgin yuzidagi katta yorug‘ ko‘zlarida, mehnatda toblangan yuz chexrasida haykalga xos o‘z ifodasini topgan. Gavda, “siluet” aniq, yengil ranglardagi manzara fonida, ko‘k, binafsha, pushti, yashil, sariq ranglarda shiddatli mahorat bilan tasvirlangan.

1959 yil “Surxondaryolik qiz” portretini yaratdi. Sariq ranglar fonida boshiga oq ro‘mol o‘rab o‘tirgan, yuzlari quyoshda toblangan bug‘doyrang ayol obrazini yaratdi. Egnidagi libosi qizil – zarg‘aldoq, dekorativ ranglarda bo‘ynidagi yaltiroq kumush tangalar, tumorlar o‘ziga xos uslubda tasvirlangan. Rahim Axmedov bilan bir qatorda Behzod nomli milliy rassomlik va dizayn institutida Ch.Axmarov, N.Qo‘ziboyev, T.Oganesov, V.Jmakin, V.Sosedov, V.Kovinin, M.Saidov kabilar yoshlarni tarbiyalashda o‘z xissalarini qo‘shishdilar. Har qanday san’atni turi insonga o‘z ta’sirini o‘tkazib unda dunyoqarashini shakllantiradi. Tasviriy san’at insonda hayotdagi ko‘rsatgan jasoratini, fikr va ichki hissiyotlarini aks ettiradi.

### Choriyev Ro‘zi Choriyevvich


(1931-2004)

Ro‘zi Choriyev 1931 yil 28 avgustda Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanidagi Poshxurd qishlog‘ida




tug‘ildi. Yoshlikdan ota-onasidan yetim qoldi. Bir necha yildan so‘ng ularning uzoqroq bir qarindoshi Sherobodda internat ochilganini eshitib, akasi Ochilni, keyin esa Ro‘zini u yerga topshirdi. Ro‘zi Sherobod va Termizda, bir necha oy esa Boysun bolalar uyida bo‘ldi. Maktabda u a’lo o‘qidi. Maktabdalik chog‘idayoq rangli qalam va bo‘yoqlarga o‘ta mehr qo‘ygandi.

…Bu orada Ro‘zi maktabni ham tugatib olgan edi. U bir amallab Toshkentga yetib keldi. Uning moddiy jihatdan yordam beruvchi kishisi yo‘qligidan, yozda turli xil ishlarda ishlab, bir oz pul topgan edi. Katta shahar ham uning quvonchlariga sherik bo‘ldi. Ro‘zi Ben`kov nomidagi rassomlik bilim yurtiga muvaffaqiyat bilan imtihon topshirdi. Ammo birinchi kursdayoq armiya safiga chaqirildi. Shunday qiyinchiliklarga qaramay, bo‘sh vaqtłari ham, rasm chizish, mohir klassik rassomlarning asarlaridan ko‘chirma olish bilan mashg‘ul bo‘ldi. Xizmat burchini o‘tab qaytgan Ro‘zi bilim yurtiga o‘zi ishlagan bir qancha jangchilarining portretlarini olib keldi. Mahorat va qunt bilan ishlangan portretlar pedagog rassomlarning tahsiniga sazovor bo‘ldi. Yosh yigitchani birdaniga 2-kursga qabul qilishdi. Izlanishlar, ilk saboqlar boshlandi. Yoz oylari ham u dam olmay Buxoro, Xiva, Surxondaryo tomonlarga jo‘nab ketar, tinmay rasm chizardi. 1959 yilda uning ijodida unutilmas voqeа yuz berdi: “Buxoro bozorida” asari Moskvada o‘tkazilgan “O‘zbek adabiyoti va san’ati dekadasi kunlari” da ko‘rgazmada namoyish qilindi. O‘zi esa Repin nomidagi tasviriy san’at, haykaltaroshlik va arxitektura instituti talabasi bo‘lishga muvaffaq bo‘ldi. SSSR xalq rassomi, professor Yuriy Neprintsev qo‘lida tahsil olar ekan, Ro‘zi o‘z bilim ufqini kengaytirib bordi. Eng muhimi ranglar sehrini mushohada qilishni o‘rganishga intildi. Tret`yakov galereyasi va Ermitajdagi umrboqiy asarlar bilan tanishdi. Repin, Van Gog, Pikasso kabi ulkan rassomlar ijodini o‘rgandi. Soatlab ularning maftuni bo‘ldi.




*Qumqo'rg'on olmalari (R.Choriyev)*



*Kelin (R.Choriyev)*

“O’tmishga qarab ish tutish, moziyni salmoqlab ko‘rish ko‘p savob ishdir”, degandi atoqli yozuvchi Abdulla Qodiriy. Ro‘zi Leningradda tahsil ko‘rgan yillari tarixni o‘rganishga harakat qildi. Ta’til va amaliyat paytlarida Buxoroga kelib, diplom ishi uchun material to‘plashga kirishdi. U aniq bir fikrga, “Buxoro amirligining yemirilishi” degan katta polotno ishlashga qaror qilgandi. Buxoro bozori yonida mol`bertini qo‘yib, o‘ziga kerakli odamlardan bir oz to‘xtab turishni iltimos qilganliklari, amirlik davridagi kiyim va aslahalarini sinchiklab o‘rganganliklari beiz ketmadi. 1965 yilda institut pedagoglari “Buxoro amirligining yemirilishi” diplom ishi kartinasini yuksak baholadilar. To‘g‘ri, ungacha rassom Aleksandr Pantileev ham “Buxoroning yemirilishi” kartinasini yaratgandi. Ro‘zi Choriyev bu kartinani ko‘rmagan edi. Bu haqda o‘ziga aytganimda, rassom juda qiziqib: “Ko‘rishim kerak”, – dedi hovliqib. Ammo uning kartinasi mutlaqo o‘zgacha ekanligini ko‘rib xotirjam bo‘ldi. uning kartinasi Pantileev kartinasidan qolishmasligini, hatto ba’zi jihatlardan ustun ham ekanligiga amin bo‘ldi. Ro‘zi Choriyev asarida respublikamizdagi ostin-ustun qilgan voqealar, xalqning yashash tarzi nozik bo‘yoqlarda yuksak mahorat bilan chizilgandi.



*Surxondaryo madonnasi (R.Choriyev)*



*Ayol portreti (R.Choriyev)*

Men rassomning ba’zi asarlari haqida gapirib bermoqchi bo‘lar ekanman, avvalo uning ijodi, uning shaxsiyati, fe’li bilan bog‘liq ekanligini ta’kidlamoqchiman. Mana bir misol. Kech, qish oqshomlari edi. Tashqari sovuq, qor. Eshik taqillab, shlyapa kiygan, bo‘g‘iqsan, asabiy, san’atshunos Rafail Toqtosh kirib keldi. Ko‘rinishdan navbatdagi “dahanaki jang”lardan qaytgandi, shekilli. Ro‘zi aka unga kursi qo‘ydi-da, gapini ham eshitmasdan uning portretini chizishga kirishib ketdi. Toqtosh unga nimalarnidir tushuntirmoqchi bo‘ldi. Rassom uning asabiy gaplarini tinglash bilan birga, uning qiyofasini shosha-pisha chizaverdi. Shu tariqa “San’atshunos” portreti paydo bo‘ldi. Portret rassomlar soyuzidagi arboblarga ham, san’at muxlislariga ham yoqdi. Yoki “qo‘shiqchi Botir Zokirov” portretini olaylik. U bu obrazni yaratish uchun necha yillar mobaynida tinimsiz kuzatishlar qilganidan xabardorman. U tabiiylikdan, oniy lahzalardan inson ichki dunyosini, psixologiyasini yaratishda hamisha ustalik bilan foydalana olardi. U kartinalarini hamma vaqt ham ana shunday vaziyatda ishlardi demoqchi emasman, albatta. Lekin bu misollar uning jo‘shqin xarakteridan bir sharh<sup>20</sup>. Rassomning ayrim kartinalariga boqsangiz, ular hayotdan olingan shunchaki lavhalarga o‘xshab ko‘rinadi. Ammo chuqur idrok etilganda buning aksini ko‘rasiz. Rassom hayot lahzalaridan ajib bir qo‘shiqlar izlaydi, sizga ham ular haqida so‘zlab bermoqchi bo‘ladi. Bu qo‘shiqlar ba’zan ichki,

<sup>20</sup> <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/memuarlar/28-avgust-rozi-choriyev.html>


kuchli tug‘yon bilan taraladi, ba’zan ranglar oqimi fikr ifodasini bosib qo‘yadi. Rassom qanday asar yaratmasin, u hamisha atrofga, odamlarga, tabiatga o‘z munosabatini bildirib keldi.

2-Jahon urushi qatnashchisi, shifokor Yoqub Mahmudov portreti yaqindagina yaratilgan. Rassom salomatlik posboni bo‘lgan vrachning ichki dunyosini, fikr-e’tiborini tasvirlashga intilgan. Og‘ir urush yillaridan muhr bo‘lib qolgan ajinlar vrach qiyofasida, qo‘llarida aks etgan. Kartina fonida fonnindoskop bor. Ammo qahramon ko‘zlarida insonni faqat fonnindoskop bilan bilib bo‘lmaydi, buning uchun qalb ko‘zi bilan qarash lozim, degan ma’noni o‘qiymiz. Vrachning o‘zini ko‘rganimda, uning ko‘zları qisiqroq ekanligini payqab, rassomga aytdim. U: “doktorning bemor ko‘rayotgan paytini ko‘rganmisiz? O‘sanda ko‘zları kattalashadi, o‘tkir nur bilan charaqlab turadi”, – degan edi. Demak, insonning eng xarakterli holatlari kartinada gavdalanishi muhim ekan<sup>21</sup>. Biz bunday holatlarni rassom ijodida ko‘plab ko‘ramiz. Rassom ijodida Surxon vohasi, uning odamlari salmoqli o‘rin tutadi. Uning “Surxondaryo odamlari” turkumidagi qator suratlari buning isbotidir. To‘ra Quvvatov va uning turmush o‘rtog‘i Ulash To‘raeva portetlariga e’tibor bering-a. Bu ikki portret siymosida bir-biriga o‘xshash nimadir borligini, ayni paytda ikkalasida ham betakror, go‘zal bir olam borligini ko‘rasiz. Bu er-xotin yigirmanchi yillarda birinchi kolxozi tashkil qilganlardan. Tomoshabin portretlarga boqar ekan, hech qanday izoh siz ham ularning hayoti shiddatli kurashlar bilan o‘tganligini payqaydi. ularning matonatli qiyofalariga maftun boqadi. Rassom chizgan manzaralarda hamisha inson qalbidagi, yaratuvchanlik hissini sezamiz. “Namangan. Bog‘larda yoz” kabi manzarasi fikrimizning dalilidir. Bog‘larning kahrabo tusga kirayotgan bir payti. Ana, daraxtlar nafas olishayotir. ularning tarovatli hayotlarida bir qo‘shiq – yoz qo‘shig‘i aytilyapti. Rassomning har bir kartinasida hayotning uyg‘unlashgan bo‘yoqlarini, so‘nmas jozibasini, mangu lahzalarini ko‘ramiz. Aytaylik, uning “Sho‘rchida to‘y” (1981) asarini olaylik. Bu asarda real odamlar yo‘q. Unda to‘yga kelgan xotin-xalaj, bolalarning g‘ira-shira sharpalari, soyalarini ko‘rish mumkin. Asar asosan iliq ranglarning qorishuvida, qora

<sup>21</sup> <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/memuarlar/28-avgust-rozi-choriyev.html>

va ko'k, yashil dog'larga nisbati ajib bir manzara hosil qiladi. Ulardagi ranglar inson qalbi va shuuriga yoqimli yorug' tuyg'u olib kiradi.

"Qahramon ona" portreti (1981) da Surxon ayolining dasht ayollariga xos hayoti manzarasi saratonga xos iliq ranglar, yorqin va o'tkir bo'yoqlarda ifoda etilgan. Uning qiyofasi qizil chaman gullar muqoyasida yaratiladi. Bu jozibali ayol Pol Gogenning qizg'ish rangda chizilgan juvoniga o'xshab ketadi. Ammo u milliy libosda yana ham tarovatli, viqorli, bir qadar jiddiy ko'rindi. Uning dadil nigohi hayotning dolg'ali to'lqinlarida kurashib, chiniqqan ayol ruhiyatini namoyon etadi. R.Choriyev ijodiy yo'nalishlarining e'tiborli tomoni shundaki, ularda kishilarning tabiatga, san'atga, mehnatga munosabatlari ko'zga tashlanadi. Aytaylik Qumqo'rg'on olmalari" kartinasida voyaga yetgan yosh qizlarning qaysimizning olmamiz chiroylidegan muloqotlari, ularning tabiatga, go'?zallikka intilishlari aks etadi. Tomoshabin xayolida xalq ijodining go'zal namunasi bo'lmish "Namanganning olmasi" qo'shig'i yangrab, u Choriyev qo'llagan ranglar tilida jaranglagandek bo'ladi.



*Boysun ayoli (R.Choriyev)*




*So'zana (R.Choriyev)*

Rassom ayni paytda ekspressiv holatlarni ilg'ashga, unga yanada jo'shqinlik xislatlarini qo'shishga ko'proq intiladi. Shu boisdan ham rassom bir suhbatida shunday deb yozgandi: "hatto etyud ishlaganimda ham o'z fantaziyamni qo'shib chizaman. Ba'zi kishilar buni tushunmay, asliga o'?xshamay qolibdi-ku, deb ta'na qilishadi". U akademik uslubni butunlay inkor qsilmadi. Bu xususiyat ayniqsa, uning

tematik kartinalari va portretlarida ko‘rindi. Xususan, “Marsiya” (“Rekviem”) uchligi, “Birinchilar”, “Qiz bolaning tug‘ilishi” kabi janrli va uchlikda ishlangan portretlarida ushbu tamoyillar yanada aniqroq seziladi.

Choriyev qariyalar va keksa ayollar portretlarini yaratishni yaxshi ko‘rardi. Ular bilan uchrashish va suhbatlashish rassomga katta ta’sir ko‘rsatadi. Bag‘rikenglik va vazminlik, erkinlik va ochiq ko‘ngillik va mehr-oqibat timsollarini chekka, xilvat joylarda yashovchi ana shu sodda, oddiy odamlar qiyofasida, ularning yashash tarzida, an’analarida ko‘ra oladi. R.Choriyev o‘z atrofini qurshab turgan muhitdan san’at olamiga loyiq muhim unsurlarni, kerakli fazilatlarni olib kirdi. Musavvir hayotdagi olijanoblik va go‘zallikni ko‘ra olish, ulardan hayratlanish va zavqlanish orqali asar yaratdi.




*Honoyim portreti (R.Choriyev)*

“Otamning do‘sti portreti”ni (1970) R.Choriyevning 70-yillar boshida yaratilgan barkamol asarlaridan biri deyish mumkin. Unda Surxondaryo qishloqlaridan birida yashovchi sqariya qiyofasi aks etgan. Cholning endi oq qoralagan qora uzun soqoli, boshidagi oqsalla, janub quyoshida qizargan yuzi, uning Surxon milliy libosi — yo‘l-yo‘l qizil-sariq yaktagi, undagi mayda kashtali jiyaklar saraton rangiga uyg‘unlashtirilgan tabiat manzara, rassomning yorqin va bir-biriga zid bo‘yoqlardan ustalik bilan foydalana olganligini ko‘rsatadi. Qariyaning olis xotiralar va bugungi hayot shiddatini o‘zida mujassam etgan nigohi o‘tkir va ma’yus. Uning libosiga faqat etnografiya yoki ranglar tovlanishi uchungina e’tibor berilgan

emas, balki tasvirlanuvchining ruhiy olami, yashash tarzini ko'rsatish maqsadida diqqat qaratilgan.

R.Choriyevning ayrim asarlarida mahobatli xususiyatlar ham ko'zga tashlanadi. Bu aslida Afrosiyob, Varaxsha devoriy suratlariga bo'lgan muhabbat, ularning uslubini yangicha talqin etishga bo'lgan ishtiyoq tufayli tug'ilgan. ("Qumqo'rg'on olmalari", "Qiz bolaning tug'ilishi" kartinalari). Akademik rassom Rahim Axmedov yozganidek: "Ro'zi Choriyev izlanishlari ko'?lami keng. Rassomning turli janrlardagi asarlarining kompozitsion yechimi rang-barang, texnikasi va uslubi turlicha bo'lishiga qaramay, ularni birdan tanib olish mumkin". Ro'zi Choriyev tabiatan xushchaqchaq, g'ayratli, kuyunchak inson edi. Uning bu kayfiyati ijodiga ham ta'sir etmay qolmagan, albatta. Musavvir iliq ranglarga boy serquyosh Surxondaryo va uning odamlarini mehr bilan tasvirladi.



*Farg'ona vodiysi (R.Choriyev)*

2000 yilning kech kuzida Turkiyaning Istambul shahrida rassomning ko'rgazmasi bo'lib o'tdi. Ko'rgazma o'tayotgan ayni paytlarda musavvirning "Ko'rfaz", "Dengiz siri", "Qirg'oqda" singari qator manzaralari vujudga keldi. Rassom hamisha izlanishda bo'lar, u qaysi bir shaklda chizsam ekan deb o'ylab o'tirmas edi.. Ko'ngli buyurganini qilardi. Ko'ngil - Ro'zi Choriyev uchun ulug' narsa edi. "San'atkor qalbi hamisha yosh bo'lishi kerak", – degan edi buyuk rassom.

## XULOSA

Badiiy yo‘nalishdagi oliy o‘quv yurtlari, maxsus san’at mактаб-internatлari, litseylarining tasviriy san’atda o‘quv mashg‘ulot jarayonlarida natura asosida real tasvirlar ishlanadi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida esa narsaning o‘ziga qarab ya’ni naturaga qarab ishlanadi. Borliqdagi mavjud narsalarning tashqi ko‘rinishi aynan o‘xshatilib tasvirlangan barcha asarlar ham realistik asar hisoblanmaydi. Naturalistik tabiatdan aynan ko‘chirish bilan cheklansa, real hayotning chuqur mazmunini ochib berish uchun uni badiiylashtiradi, ba’zida bo‘rttiriladi. Kelajagimiz bo‘lgan yosh avlodni har tomonlama rivojlanishda estetik tarbiya ham alohida ahamiyatga ega<sup>22</sup>. Tasviriy san’atning rangtasvir fani talaba-yoshlarga borliqni yaxshiroq tushunishga, odamlarning his-tuyg‘ulari, dunyonи chuqurroq anglashga, ularning ijodiy qobiliyatini o‘stirishga yordam beradi, go‘zallikdan bahra olishga o‘rgatadi, shuningdek ularning hayotga go‘zallik kiritish malakalari rivojlangan, badiiy fikrlash doirasi keng bo‘ladi. Yoshlardagi bu holatlarni rivojlantirishda estetik tarbiyaning ta’siri katta ahamiyat kasb etadi. Tasviriy san’at borliqni badiiy obrazlar orqali o‘zida aks ettiradi. Tasviriy san’at insonning ongiga ta’sir etib, unda ezgu histuyg‘ularni uyg‘otadi. U kishini ruhlantirib ma’naviy olamini boyitgan san’at turlaridan biridir. “Shunday qilib, estetika tasviriy san’atni to‘la qamrab oladi va uning ich-ichiga kirib boradi: badiiy asarning yaratilish arafasidagi shart-sharoitlardan tortib, to u bunyodga kelib, asl egasi – idrok etuvchiga yetib borgunicha bo‘lgan va undan keyingi jarayonlarni tadqiq etadi, hamda ulardan nazariy xulosalar chiqaradi”<sup>23</sup>. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.Karimov “Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan qilib tarbiyalanadi. Agar bola erkin fikrlashni o‘rganmasa, berilgan ta’lim samarasi past bo‘lishi muqarrar. Albatta bilim kerak, ammo bilim o‘z yo‘liga, mustaqil fikrlash ham katta boylikdir” degan edilar.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, inson har doim go‘zallikka intiladi, undan ma’naviy ozuqa oladi. O‘z hayoti, faoliyati va turmush sharoiti, atrof-muhitni

<sup>22</sup> N.Jumaboyev, Sh.Abdusalomova. Tasviriy san’at: zamонавиј та’лим ва эстетиканинг уйг’унлиги. “XXI asrda ilm-fan taraqqiyotining rivojlanish istiqbollari va ularda innovatsiyalarning tutgan o‘rni” mavzusidagi Respublika 11-ilmiy onlayn konferensiysi materiallari (2-qism) 2019.

<sup>23</sup> Abdulla Sher. Estetika. T.: “O‘zbekiston falsafa fanlari nashriyoti”. 2010 y. 7-b.

go‘zalroq bo‘lishiga harakat qiladi. Bu hol o‘z navbatida uning didini, nozik his-tuyg‘ularini shakllantiradi. Rangtasvir inson ichki dunyosining eng nozik va eng jozibali qirralarini namoyon etadi. Bu asarlar insonning his-tuyg‘ulari, xilma-xil kechinmalarini qo‘zg‘ab, uning diliga, ruhiga ta’sir o‘tkazib, san’at va inson uyg‘unligi va hamkorligini ta’minlaydi. Rang inson hayotida muhim rol uynaydi. U turli vaziyatlarda odamga har xil ta’sir etadi. Shuning uchun biz ayrim paytlarda ranglarni “quvonchli” va kayfiyatimizni tushkunligini ifoda etishi mumkin bo‘lgan “xira” deb atashimiz bejiz emas. Inson qadimgi paytlardanoq rangning ana shunday xususiyatlarini hisobga olib, o‘z faoliyatida unumli foydalanib kelganligi ma’lum. Ayniqsa, shunday vosita sifatida rassomlar undan ustalik bilan foydalanganlar. Asarlariga har xil ranglar bilan jilo berib, odamlar kayfiyatiga turlicha ta’sir etib fikrlar uyg‘otadigan tasvirlar yaratishga erishganlar. Shuning uchun tasviriy san’atning juda ko‘p turlari va janrlarida rang hamda uni ishlata bilish juda katta ahamiyatga egadir.

## TEST SAVOLLARI

- 1. “Akvarel” bo‘yog‘ida ishlashda asosan qanday qog‘ozlar ishlatiladi?**  
a) tarshon;  
b) vatman;  
c) karton.
  
- 2. “Amir Temur”, “Beruniy”, ”Bobur” portretlari mualifi kim?**  
a) M.Nabiyev;  
b) A.Abdullayev;  
c) P.Benkov,
  
- 3. “Drapirovka” nima?**  
a) mato;  
b) detal;  
c) buyum.
  
- 4. “Qarg‘alar uchib keldi” asari mualifi kim?**  
a) Savrasov;  
b) Surikov;  
c) Serov.
  
- 5. “Qora kofe” nomli natyumort kimning qalamiga mansub?**  
a) L.Salimjonova;  
b) M.To‘xtayev;  
c) N.Kashina.
  
- 6. “Kutmagan edilar” asarining mualifi kim?**  
a) I.Repin;  
b) I.Kramskoy;  
c) A.Abdullayev.
  
- 7. “Natyurmort” so‘zining ma’nosи...**  
a) Jonsiz tabiat;  
b) Buyumlar;  
c) Drapirovka.
  
- 8. “Pompeyning so‘ngi kuni” asari mualifi kim?**  
a) K.Bryulov;  
b) P.Fedotov;  
c) I.Ivanov.
  
- 9. “Spitamen qo‘zg‘oloni” asari mualifi kim?**  
a) M.Nabiyev;  
b) R.Choriyev;

c) A.Abdullayev.

**11. “Grafika” so‘zi lotincha nimani anglatadi?**

- a) yozaman;
- b) o‘lchayman;
- c) yasayman.

**12. “Grizayl” so‘zining ma’nosi nima?**

- a) kulrang;
- b) havorang;
- c) qizilrang.

**13. “Qabr ustida”, “Mangu sukunat”, “Oltin kuz” kabi asarlar muallifi kim?**

- a) I.Levitan;
- b) I.Shishkin;
- c) A.Savrasov.

**14. “Qadimgi Sharq” iborasi deb qaysi mintaqaga nazarda tutiladi?**

- a) Xitoydan qadimgi Rimgacha bo‘lgan mintaqqa;
- b) Qadimgi Grek, Rim davlatlaridan Sharqda va Janubda joylashgan geografik mintaqqa;
- c) Quldarlik davridagi hamma davlatlar.

**15. “Ko‘chma ko‘rgazmalar birodarligi” ga a’zo bo‘lgan va unda ijod etgan rassomlar qanday nom olgan?**

- a) Sayyor rassomlar;
- b) Ko‘chmanchi rassomlar;
- c) Revolyutsion rassomlar.

**16. “Mona Liza” asari muallifini ko‘rsating?**

- a) Da Vinci;
- b) Mikelanjelo;
- c) Dyurer.

**17. “Monumental” so‘zining ma’nosi nima?**

- a) katta o‘lchamli;
- b) kichik o‘lchamli;
- c) tashviqot.

**18. “Renessans” so‘zining ma’nosi.....**

- a) uyg‘onish davri;
- b) rassomlar davri;

c) inqiroz davri.

**19. “Sayyor rassomlar” yo‘lboshchisi va tashkilotchisi kim?**

- a) I.Kramskoy;
- b) I.Repin;
- c) I.Shishkin.

**20. “Uyg‘onish davri” degan iborani ilk bor italyan rassomi va san’atshunosi ... tomonidan aytilgan.**

- a) Jorjo Vazare;
- b) Leonardo da Vinchi;
- c) Jotto.

**21. “O‘rmonchi” nomini olgan rassomning familiyasi qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

- a) Shishkin;
- b) Savrasov;
- c) Repin.

**22. XIX asr oxri XXasr boshlarida Rus Badiiy akademiyasida pedagoglik qilgan rassomning nomi nima?**

- a) Chistyakov;
- b) Rubin;
- c) Shishkin.

**23. Avtoportret nima?**

- a) Rassom o‘z-o‘zini tasvirlashi;
- b) Do‘stlar portreti;
- c) Texnik tasvir.

**24. Akademik portret nima?**

- a) o‘rganish maqsadida chizilgan portret;
- b) ijodiy portret;
- c) hayoliy portret.

**25. Akvarel bo‘yog‘ida qanday usulda ishlanadi?**

- a) suvli;
- b) qattiq;
- c) quruq.

**26. Bir necha yoki ko‘p tasviriy vositalar, texnik imkonyatlar qo‘llab tasvir yaratish nima deyiladi?**

- a) aralash texnika;
- b) monumental;

c) plakat.

**27. Binolarning ichki qismi nima deyiladi?**

- a) interyer;
- b) fasad;
- c) eksteryer.

**28. Asosiy ranglar qaysilar?**

- a) Sariq, qizil, zangori;
- b) Sariq, qizil, jigarrang;
- c) Qizil, jigarrang, qora.

**29. Asar yoki tasviriy ishning tuzilishi, tarx, rang yechimga nima deyiladi?**

- a) kompozitsiya;
- b) kompanovka;
- c) konstruktsiya.

**30. Arxaik grekcha “Arxeyos” degan so‘zdan olingan bo‘lib qanday ma’noni anglatadi?**

- a) Qadimgi;
- b) Bo‘lajak;
- c) Hozirgi.

**31. Bir-biridan rang va tus jihatidan keskin ajralib turuvchi bo‘yoq xillari qanday nomlanadi?**

- a) Kontrast ranglar;
- b) Axromatik ranglar;
- c) Xromatik ranglar.

**32. .... deb buyumlarning fazo (bo‘shliq) ta’sirida o‘zgarib (qisqarib) ko‘rinishiga aytildi.**

- a) Fazoviy perspektiva;
- b) Ufq chizig‘i;
- c) Buyum tekisligi.

**33. “Shohizinda” me’morlik majmuasi qaysi shaharda joylashgan?**

- a) Samarqand;
- b) Buxoro;
- c) Hiva.

**34. Buxorodagi “Somoniylar maqbarasi” nechanchi asrda qurilgan?**

- a) IX;
- b) XV;
- c) XX.

**35. .....lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, badiiy asarning qurilishi, g‘oyasi, xarakteri degan ma’noni bildiradi.**

- a) kompozitsiya;
- b) komponovka;
- c) grafika.

**36. Rangtasvir xarakteriga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?**

- a) dastgohli va mahobatli;
- b) miniatyura va portret;
- c) mahobatli va mo‘jaz.

**37. Tasviriyl san’atda kompozitsiyaning qaysi turlari qo‘llaniladi?**

- a) rangtasvir, haykaltaroshlik, dekorativ;
- b) interyer, eksteryer, fasad;
- c) yaqin, uzoq, ufq chizig‘i.

**38. Hosila ranglar deb..... aytildi?**

- a) asosiy ranglarning bir-biriga qo‘shilishidan hosil bo‘lgan ranglar;
- b) oq va qora rang oralig‘idagi ranglar;
- c) oq va qora rangdan boshqa ranglar.

**39. Mustaqillik maydonidagi “Baxtiyor ona” haykali muallifi kim?**

- a) Ilhom Jabborov;
- b) Ravshan Mirtojiyev;
- c) Botir Boymetov.

**40. Bugungi kunda rassomlar tomonidan katta odam gavdasini tasvirlashda bosh o‘lchami necha barobar belgilash kerakligi nazarda tutiladi?**

- a) 8;
- b) 9;
- c) 5.

**41. Relyef usulida asar ishlash tasviriyl san’atning qaysi turiga mansub?**

- a) haykaltaroshlik;
- b) rangtasvir;
- c) grafika.

**42. “Registon ansambli” qaysi shaharda joylashgan?**

- a) Samarqand;
- b) Toshkent;
- c) Buxoro.

**43. “Roman” iborasi qanday tushunchani o‘z ichiga oladi?**

- a) “Rim” uslubi;

- b) “me’morchilik”;
- c) “Romanizm”.

**44. Qadimgi Misrda san’atning qaysi turi yetakchi o‘rinni egallab turadi?**

- a) monumental me’morchilik;
- b) dekorativ san’at;
- c) kulolchilik.

**45. Toshkentdagি “Zulfiya” haykali muallifi kim?**

- a) Ravshan Mirtojiyev;
- b) Ilhom Jaborov;
- c) Bohodir Jalolov.

**46. Turli rangdagi shisha oyna bilan derazalarga naqsh yoki tasvir ishslash bu....**

- a) vitraj;
- b) mozaika;
- c) kollaj.

**47. Tasviriylar san’atda haykaltaroshlikning .....yo‘nalishlari mavjud.**

- a) lirika va dramatizm;
- b) portret va byust;
- c) animal va maishiy.

**48. Kishilar hayotini o‘zida aks ettiruvchi tasviriylar san’at janri bu...**

- a) maishiy;
- b) botal;
- c) manzara.

**49. Professional san’at va san’atkorlar qanday o‘zgarish davrida paydo bo‘ldi?**

- a) Jismoniy mehnatdan aqliy mehnatning ajralib chiqishi natijasida;
- b) Qishloq xo‘jaligining rivojlanish natijasida;
- c) Davlat to‘ntarilishi natijasida.

**50. To‘lqinsimon chiziq qanday ramz ifodasini aks etgan?**

- a) suv;
- b) yer;
- c) tog‘.

## GLOSSARIY

<b>Abris</b>	Hajmning chiziqli shakli
<b>Akvarel</b>	(fr. <i>Aquarelle</i> – suvli; ital. <i>acquarello</i> ) – rangtasvir ashyosi bo‘lib, maxsus suv bo‘yoqlaridan foydalanuvchi, suvda erigan holatida yupqa shaffof suspenziya hosil qilish orqali tasvirga engillik, qulaylik va nozik rang o‘tish ta’sirini yaratib beradi.
<b>Axromatik ranglar</b>	yunon tilidan olingan bo‘lib, rangsiz degan ma’noni anglatadi. Ular oq, qora, kulrang va ularning aralashmasidan hosil bo‘lgan tuslardir.
<b>Badiiy ko‘rgazma</b>	Tasviriy, amaliy, me’morchilik san’at asarlari yoki loyihalarni ommaga namoyishi tushuniladi. Ular muzey, galereya, san’at saroylari va markazlarida o‘tkaziladi. Ko‘rgazma bir yoki bir necha muallifning tasviriy san’at ayrim tur yoki janrlari bo‘yicha ham o‘tkaziladi. Ular davriy yoki doimiy va ko‘chma tarzda o‘tkazilishi mumkin. Badiiy ko‘rgazmaning xalqaro, mintaqaviy, milliy turlari ham bor. Badiiy ko‘rgazmada ba’zan birgina asar qo‘yilishi hollari ham bo‘lgan. Masalan, ko‘p yillardan buyon Leonardo da Vinchining “Mona Liza” nomli asrining bir o‘zi ko‘chma ko‘rgazmada namoyish etilgan.
<b>Badiiylik</b>	San’at asarlarining mezoni, o‘lchovi.
<b>Blik</b>	Tasvirlanayotgan narsadagi eng yorug‘ shu’la, qism. Ayniqsa hajmlli narsalarining bo‘rtirib chiqqan qismlarida shu’la yaqqol ko‘rinadi.
<b>Bo‘yoq</b>	tasviriy san’atda, shuningdek, badiiy bezak ishlarida ishlatiladigan qorishma. Uning moybo‘yoq, akvarel, guash, tempera, emal, emulsiya kabi turlari bor.
<b>Buyum formasi</b>	Buyum, obekt hamda chiziqlar joylashuvi chegaralarining nisbiy holati
<b>Ekorshe</b>	(frants. Écorché – “shilip olingan” écorce – “jild”) – o‘quv jumla, odamning muskullari yuzaga chiqarilgan terisiz qomati
<b>Fon</b>	fon, zamin, tag; (ko‘m-ko‘k osmon fonida, rangli mato fonida) suratlarda eng oxirigi orqa plan rangini bildiruvchi ibora.

<b>Grizayl</b>	(fransuzchadan <i>Grisaille</i> – <i>gris so ‘zidan “kulrang”</i> ma’nosini anglatadi) – bu rangtasvir turi hisoblanib, bir yoki ikki rangda ishlanadigan, ko‘pincha jigarrang yoki kul ranglarda tasvirlanadi hamda bu arxitektura va haykaltaroshlik elementlarini qog‘ozga tushirish texnikasi hisoblanadi. Grizaylda buyumning faqat tusi hisobga olinib, rangini esa ahamiyati yo‘q.
<b>Guash</b>	(fr. <i>Gouache</i> , ital. <i>guazzo</i> suv bo‘yog‘i, shovullash ma’nolarini anglatadi) – akvarelga qaraganda qalinqoq va xira bo‘lib, suvda eriydigan elimli bo‘yoqlar turiga kiradi.
<b>Hajm</b>	Tasvirning tekislikdagi uch o‘lchamli shakli.
<b>Homaki nusxa</b>	(fransuzcha “etude” - o‘rganish) – hayotdan ishlangan ish. Ko‘pincha etyud mustaqil ma’no kasb etadi. Ba’zida u chizuvchining professional malakasini oshirishi bilan bir qatorda olamni chuqurroq va haqqoniy o‘rganishga xizmat qiladi. Shu bilan birga etyud ishlanadigan asarga ham yordamchi, ham tayyorlovchi material bo‘lib ham xizmat qiladi. Etyud yordamida rassom asar g‘oyasini aniqlaydi va mayda qismlariga ishlov beradi.
<b>Interyer</b>	Bino ichkarisining ko‘rinishi bir burchagi, qismi. Interyer tasviriy san’atning janri bo‘lib binoning ichki ko‘rinishlari tasvirlanadi.
<b>Kapit��l</b>	( <i>lotincha caput</i> ) - ustun yoki, plyastrni bog‘lovchi qism. Kapitel ustundan bo‘rtib chiqib, ustunga o‘zgacha ko‘rk beradi.
<b>Koloristika</b>	rang haqidagi fan bo‘lib, ranglar tabiat, asosiy, tarkibiy (tashkil etuvchi) va qo‘srimcha ranglar, ranglarning asosiy xarakteristikalari, rang kontrastlari, ranglar aralashuv, kolorit, ranglar uyg‘unligi, ranglar tili va ranglar madaniyati haqidagi bilimlarni o‘z ichiga oladi. Ranglar dunyosi qonunlari ranglar bilan do‘stlashish yoki do‘stlashmaslikni aniqlab beradi.
<b>Kolorit</b>	Badiiy asar mazmunini tushunarli bo‘lishida ranglar nisbatidan foydalanish, badiiy asarlardagi ranglarning umumiyl tusi, tuzilishi.
<b>Kompozitsiya (tasviriy san’atda)</b>	Bu badiiy shaklni mujassamlashtiradigan, asarga birdamlik va yaxlitlik beruvchi, rassom g‘oyasi elementlarini bir-biriga jipslashtiruvchi narsa.

<b>Mato</b>	Rangtasvirda – maxsus ishlov berilgandan so‘ng moy bo‘yoq yordamida ustiga ishlanadigan qalin zig‘ir yoki paxta mato.
<b>Natyurmort</b>	(fransuzchadan “natyurmort” so‘zi “o‘lik narsa” degan ma’noni anglatadi). Bu tasviriy san’at janridir. Bu janr asarlarida asosan insonni o‘rap turgan buyumlar aksini topadi – ko‘zalar, vazalar, oziq-ovqat mahsulotlari, gullar va boshqa maishiy buyamlar shular jumlasidandir. <b>Ijodiy natyurmort</b> – bu rassomning insonni o‘rap turgan buyumlar aksini o‘z zamoni va makonidagidek qilip tasvirlashi hisoblanadi.
<b>Nisbatlar</b>	Buyumlar qismlarining bir-biriga va asosiga bo‘lgan o‘lochamlar munosabati
<b>O‘z soyasi</b>	Predmetning bir tarafi yorug‘likda, boshqa tomoni soyada joylashganidagi paydo bo‘ladigan soya.
<b>Panorama</b>	Aylana podramnikda ishlanadigan tasmasimon asar.
<b>Perspektiva</b>	(fr. <i>perspective</i> , lat. <i>perspicere – orqali ko‘rish</i> ) – fazoviy ob’ektlarning biron- bir tekislikdagi zoxiriy qisqartirilishiga muvofiq ularning shakli va soya-yorug‘ligi o‘zgarishini ifoda etuvchi tasvir texnikasi.
<b>Peyzaj</b>	(fr. <i>Paysage</i> , pays dan – o‘lka, atrof) – tasviriy san’at janri (hamda bu janrning alohida asarlari) bo‘lib, tasvirning asosiy buyumi u yoki bu darajada inson tomonidan o‘zgartirilgan tabiatdir.
<b>Portret</b>	(frans. <i>Portrait</i> - tasvir) – tasviriy san’at janri, bir va undan ortiq odam tasviri
<b>Qarash burchagi</b>	Jismning chekka nuqtalariga qarab kuzatuvchidan chiqayotgan nurlar yo‘nalishi.
<b>Qarash nuqtasi</b>	Rasm chizuvchining joylashgan o‘rni yoki kuzatish nuqtasi
<b>Qoralama</b>	Badiiy asar g‘oyasini belgilovchi dastlabki chizma.
<b>Rakurs</b>	Buyum shaklining perspektiv qisqarishi vositasida uning doimiy ko‘rinishi o‘zgarishi; buyumning tepe yoki pastdan qaralgandagi to‘satdan berilgan qisqartmalari.
<b>Rangtasvir</b>	Tasviriy san’at turi bo‘lib, kuzatuvchining ko‘rib turgan yoki hayoliy voqelikni qalin yoki egiluvchan yuzaga bo‘yoqlar yordamida tasvir tushiriladigan tushunchadir.

<b>Refleks</b>	narsaning shaxsiy va tushuvchi soyasidagi aks shu'lasi, u tevarak atrofdagi narsalarni ta'siri natijasida sodir bo'ladi.
<b>Sangina</b>	(fr. <i>sanguine</i> , lotincha- <i>sanguis</i> ) – rasm chizishga mo'ljallangan qalamcha shaklidagi yumshoq material bo'lib, tarkibi <u>kaolina</u> va <u>temir oksidlaridan</u> iborat.
<b>Shtrixlash</b>	Tasvirda ishlatiladigan chiziqlar birdamligi yoki bir-biri ustiga yotkizilgan nuqtalar yoki chizmaga tus berishga ishlatiladigan chiziqlar yig'indisi.
<b>Sous</b>	Rasm chizishga mo'ljallangan yumshoq material bo'lib, tarkibi loy, bo'r, elim va rangli kukunlardan iborat. Ular qora, och qoramtil va oq ranglarda bo'ladi.
<b>Triptix</b>	Yunon tilidan olingan bo'lib, "uch bor buklangan" – degan ma'noni anglatadi. Aslida u yagona umumiylar mazmun va g'oyani ifodalaydigan uch bo'lakdan iborat rangtasvir yoki grafika asari hisoblanadi.
<b>Tushuvchi soya</b>	Yorug'lik manbai bilan bir xil yo'nalishda joylashgan boshqa buyumning nur manbaidan yashirin tomoni maydoni.
<b>Tuslash</b>	Tasvirning aniq bir qismini soya-yorug'ini ko'rsatib berish uchun qo'llaniladigan uslub
<b>Xromatik ranglar</b>	ushbu atama yunon tilidan olingan bo'lib, "rang, bo'yoq" ma'nolarini anglatadi. Ular qatoriga oq, qora, kulrang tuslaridmn tashqari barcha rang tuslari kiradi.
<b>Yarimsoya</b>	Hajmlli buyumning yuza qismidagi soya-yorug'ning, soya va nurning o'rtasidagi rang birligi
<b>Yorqinlik</b>	bu yarqirayotgan (yoki nur sochayotgan) jismning xarakteristikasi bo'lib, qandaydir yo'nalishdagi yorug'lik kuchining yarqirayotgan sirtning shu yo'nalishga perpendikulyar bo'lgan tekislikka tushayotgan proektsiyasining (tasvirining yoki aksining) maydoni nisbatiga teng.
<b>Yorug'-soya</b>	Biron-bir buyumning soya-yorug'ini aniqlashdagi grafik munosabat.

## ILOVALAR



O‘quv natyurmorti bosqichlari



Natyurmort. Qog'oz, akvarel. M.Maxmatova. GulDU talabasi



Anor va uzumli natyurmort. Qog'oz, akvarel. G.Toliyeva. GulDU talabasi



Natyurmort. Qog'oz, rangli qalam. U.Axatjonova. GulDU talabasi




Gulli natyurmort. Qog'oz, guash. G.Odilova. GulDU talabasi



Milliy natyurmort. Mato, moybo‘yoq. A.Abdullayev. GulDU talabasi




Gullar kompozitsiyasi. Mato, moybo‘yoq. X.Ulmonova. GDPI talabasi



Zomin tog‘lari. Mato, moybo‘yoq. A.Abdullayev. GulDU talabasi



Zomin tog‘lari. Mato, moybo‘yoq. N.Gayberdiyeva. GulDU talabasi



Sharqona go‘zallik. Mato, moybo‘yoq. A.Anvarova. GDPI talabasi



Avtoportret. Qog‘oz, akvarel. A.Qo‘yliyev. GDPI talabasi

## **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sh.M.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: “O‘zbekiston”, 2017.
2. Abdulla Sher. Estetika. T.: “O‘zbekiston falsafa fanlari nashriyoti”. 2010.
3. B.Barber “Full course of the drawing”, Berselona 2014.
4. B.Oripov. Tasviriy faoliyat metodikasi. T.: “Ilm-ziyo”, 2017.
5. E.Nurmanov. Rangtasvir. O‘quv qo‘llanma. T.: “Info Capital Group”, 2018.
6. E.Xaitov. Kompozitsiya. O‘quv qo‘llanma. T.: “Cho‘lpon”, 2019.
7. G‘.Abdurahmonov. Kompozitsiya asoslari. T.: “Iqtisod-moliya”, 2008.
8. I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. T.:“Ma’naviyat”. 2008.
9. M.Abdullayeva. O‘quv jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati. “Xalq ta’limi” jurnali. T.: 2017. 6-sон.
10. M.Nabiiev. Rangshunoslik va rangtasvir asoslari. T.: 1995.
11. M.Xudoyberdiyev. “Manzara rangtasvirini” o ‘qitishda talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning usullari. Журнал музыки и искусства. 2021.
12. N.Jumaboyev. Kamoliddin Behzod va miniatyura san’ati. International journal of philosophical studies and social sciences ISSN-E: 2181-2047, ISSN-P: 2181-2039. <http://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss/article/view/57/51>
13. N.Jumaboyev, Sh.Abdusalomova. Tasviriy san’at: zamonaviy ta’lim va estetikaning uyg'unligi. “XXI asrda ilm-fan taraqqiyotining rivojlanish istiqbollari va ularda innovatsiyalarning tutgan o‘rni” mavzusidagi Respublika 11-ilmiy onlayn konferensiyasi materiallari (2-qism) 2019.
14. N.Rostovsev. Maktabda tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi. M.: 1980.
15. N.Tolipov, S.Abdirasilov, N.Oripova. Rangtasvir (1-qism). O‘quv qo‘llanma. T.: TDPU. 2002.
16. N.Tolipov, S.Abdirasilov, N.Oripova. Rangtasvir (2-qism). O‘quv qo‘llanma. T.: TDPU. 2003.
17. N.Yusupova. Ranglarga yashiringan sirlar. T.: Davr press, 2010.
18. O.Muinov. Rangtasvir. O‘quv qo ‘llanma. T.: 2007.

19. O.S.Baymurzayeva. Ixtisoslashgan san'at mакtablarida o'quvchilarga natyurmortni rangtasvirda ishslashga o'rgatish metodikasi. Science and Education, 2020.
20. O.Usmonov. Kamolidin Behzod va uning naqqoshlik maktabi. T.:“Fan” 1977.
21. P.Shabaratov. Miniатyura. T.: “Tafakkur” nashriyoti, 2011.
22. R.Hasanov. Tasviriy san'at asoslari. O'quv qo'llanma. T.: “G'afur G'ulom”, 2009.
23. R.Mamasoliyev. Rangtasvirda akvarel bo'yoqlari bilan ishslash usullari. T.: 2016.
24. S.Abdirasilov, N.Tolipov. “Rangtasvir”. O'quv qo'llanma, T.: “Bilim”, 2005.
25. S.Abdirasilov, N.Tolipov. Rangtasvir darslik. T.: “Innovatsiyo-ziyo”, 2019.
26. S.Abdirasilov, N.Tolipov. Rangtasvir. T.: “Bilim”, O'MKHTM. 2005.
27. S.Abdirasilov, S.Maxkamova, N.Isaxojiyeva. Tasviriy san'at to'garagi. T.: “Sharq”, 2012.
28. S.Abdirasilov, S.Maxkamova. T.: “Iste'dod”, metodik qo'llanma. TDPU. 2014.
29. S.Abdirasilov. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. T.: 2012.
30. Sharafiddin Ali Yazdiy. “Zafarnoma”. Movarounnahr voqealari. 1360-1370. T.: “Kamalak”, 1994.
31. Sharq miniyatyura maktablari. Maqolalar to'plami. T.: Nafosat olami, 1989.
32. T.Mahmudov, Ya.Olimov. O'zbekiston san'atida inson omili. T.: “G'afur G'ulom”, 1988.
33. V.Beda. Rangtasvir. M.: 1968.
34. X.Sultonov. “Rangtasvir” (grizaylda ishslash) metodik qo'llanma. TDPU. 2014.
35. X.Usmonov. “Behzod va uning naqqoshlik maktabi”, T.: 1997.
36. В.Н.Гусев. Акварельные краски. М.: 1979.
37. Д.Мурсалимов. Живопись. Учебное пособие. Т.: “Iqtisod-moliya”, 2010.
38. Р.Халилов. Живопись издательство. Т.: “Навруз”, 2013.
39. M.Pazlova. Ajodolarimiz merosini o'rganish jarayonida talabalarning o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirish mexanizmlari. Pedagogika fanlari doktori (DSC) dissertatsiyasi avtoreferati. N.: 2022.

### **Internet saytlari:**

1. <https://artlot24.ru/article/kardovskij-dmitrij-nikolaevich-227>
2. <https://fayllar.org/ii-bob-ozbekiston-xalq-rassomi-rahim-Axmedov-hayoti-va-ijodi-i.html?page=2>
3. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/memuarlar/28-avgust-rozi-choriyev.html>
4. <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/ozbekiston-xalq-rassomi-malik-nabiyev-100-yoshda.html>
5. <https://kitobxon.com/uz/catalog/sanat/rassomlik>
6. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Natyurmort>
7. <https://uzlib.uz/elektron-kutubxona>
8. [www.artacademu.spd.ru](http://www.artacademu.spd.ru)
9. [www.msus.org](http://www.msus.org)
10. [www.natlib.uz](http://www.natlib.uz)
11. [www.nbdf.intal.uz](http://www.nbdf.intal.uz)
12. [www.pencil.nm.ru](http://www.pencil.nm.ru)
13. [www.vgik.info](http://www.vgik.info)
14. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

## Mundarija

Kirish.....	3
Ranglarni o‘zbek tilida nomlanishi.....	5
Ranglarning inson kayfiyatiga ta’siri.....	9
Rangtasvir haqida tushuncha.....	15
Natyurmort.....	28
Xolis fonda geometrik jismlardan tashkil topgan sodda natyurmort ishlash (grizayl).....	28
Gipsli geometrik jismlardan tuzilgan natyurmortning rangtasvirini cheklangan ranglarda bajarish.....	32
Xolis fonda oddiy shakldagi uy-ro‘zg‘or buyumlardan tashkil topgan natyurmort rangtasvirini bajarish.....	34
Qisqa muddatda uy-ro‘zg‘or buyumlardan tashkil topgan natyurmort rangtasvirini bajarish.....	37
Kontrast fonda turli shaklli va har xil fakturalii buyumlardan tuzilgan natyurmortning rangtasvirini bajarish.....	40
Portret.....	43
To‘q fonda qiyofachi portretini bir xil rangda ishlash (grizayl).....	43
Milliy mato fonida ayol portreti ranglavhasini qo‘li bilan ishlash.....	45
Mashhur tasviriy san’at namoyondalari.....	48
Kamoliddin Behzod.....	48
Tansiqboyev O‘rol Tansiqboyevich.....	56
Ahmarov Chingiz Gabdурahmonovich.....	62
Nabiyev Malik Nabiyevich.....	65
Axmedov Rahim Axmedovich.....	69
Choriyev Ro‘zi Choriyevvich.....	74
Xulosa.....	81
Test savollari.....	83
Glossariy.....	89
Ilovalar.....	93
Foydalilanigan adabiyotlar.....	99
Internet saytlari.....	101

**N.P.Jumaboyev**

# RANGTASVIR

Tasviriy san`at va muhandislik grafikasi ta'lim yo‘nalishi  
Rangtasvir darslari uchun  
(o‘quv qo‘llanma)

Bosishga ruxsat etildi. 07.09.2023 y.  
Qog`oz bichimi 60x84 1/16. Times New Roman  
garniturasida terildi.  
Offset uslubida oq qog`ozda chop etildi.  
Nashriyot hisob tabog`i 6.5, Adadi 100. Buyurtma № 43  
Bahosi kelishuv asosida

“BROK CLASS SERVIS” MChJ bosmaxonasida chop etildi.  
Manzil: Toshkent shahar Zargarlik ko'chasi, Segizbayeva 10a.